

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA KAFEDRASI**

**« Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishning
geografik xususiyatlari» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya» ta‘lim yo‘nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi Normurodova Oygul

ILMIY RAHBAR: kat.o‘q. O.X.Quvondiqov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
_____sonli bayonnoma «__»_____2017 yil

Samarqand-2017

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. O'ZBEKISTONDA YER RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI.....

- 1.1. Yer resurslari qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida
- 1.2. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan oqilona foydalanish
- 1.3. Yer resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslari.....

II BOB. SAMARQAND VILOYATIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI.....

- 2.1. Viloyat yer fondi va uning taqsimlanishi.....
- 2.2. Viloyat tumanlarida yer resurslarining holati.....
- 2.3. Viloyat tumanlarining xo'jalik ixtisoslashuvida yerdan foydalanish.....

III BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING MUAMMOLARI.....

- 3.1 Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari.....
- 3.2 Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida yer resurslari eng muhim vosita hisoblanadi. Chunki davlatlarning yer resurslariga bo'lgan ta'labi oshib borar ekan ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Shu boisdan ham bugungi kunda yer resurslarini muhofaza qilish va undan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini yaratishga ayniqsa katta e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi yer resurslaridan foydalanishning holati bilan chambarchas bog'liqdir. Qishloq xo'jaligi esa aholini oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlaydigan iqtisodiyotning asosiy tarmog'idir.

Respublikamizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi.

Yerlarning meliorativ holatiga yaxshilash xozirgi kundagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda sug'oriladigan yerlarning qariyb 8 foizining meliorativ holati yomon bo'lib, bu avvalo tuproqning sho'rlanish darajasi yuqoriligi va yer osti suvlarining ko'tarilishi bilan bog'liq. Salkam 330 ming gektar yer meliorativ holati qoniqarsizligi tufayli qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lib turibdi. Sug'oriladigan yerlarning sifatini baholashning umumiy ko'rsatkichi bo'lgan yer boniteti so'nggi yillarda 55 balgacha pasaydi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm, Buxoro va Sirdaryo, Farg'ona va Toshkent hamda boshqa bir qator viloyatlarda ahvol murakkabligicha qolmoqda. Bugungi kunda yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish respublikamiz hukumati oldida turgan eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. SHunday sharoitda mavjud qishloq

xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish masalalarini iqtisodiy - geografik jihatdan o'rganish mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishi oldidagi qo'yilgan asosiy maqsad, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishni iqtisodiy geografik jihatdan ilmiy asosda o'rganish. O'zbekiston yer resurslaridan foydalanishning umumiy holati, shu jumladan Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish borasidagi mavjud muammolar yechimini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish taqozo qilinadi:

- O'zbekiston yer resurslari va ulardan samarali foydalanishning ilmiy jihatdan asoslash;
- Yer resurslari qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida;
- Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan oqilona foydalanish;
- Yer resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslari.;
- Samarqand viloyatida yer resurslaridan foydalanish holatini tadqiq etish;
- Viloyat tumanlarida yer resurslaridan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;
- viloyatda yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini o'zgarishi sharoitida yerdan foydalanish holati tahlil qilish;
- Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan istiqbolda samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish yo'nalishlarini aniqlash va bu bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ulardan ilmiy asosda foydalanishni takomillashtirish muhim masalalardan biridir. Bu esa yer resurslardan foydalanishni yaxshilash, ularni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu borada, ayniqsa qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari A.A.Rafiqov,

Q.N.Abirqulov, A.N.Xojimatov, T.J.Jumayev, N.R.Rajabov, O.Abdullaev, Q.CHoriev, N.Sotivoldiev, A.Baratov K.Sirojdinov va boshqalarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Shunday bo'lsada, mahalliy xo'jaliklar iqtiyosodiyotida sezilarli darajada, hatto, aytish joizki, yetakchi o'rinni egallagan yer resurslaridan foydalanish masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etishni talab etadi. Masalaning bu jihatlari yechimi esa o'z navbatida yer resurslaridan oqilona foydalanish muammolarni o'rganish, ularning yechimlarini aniqlash va aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan

- Yer resurslarining foydalanishning ilmiy – nazariy asoslari taxlil qilindi.
- Samarqand viloyatida yer resurslaridan foydalanish holatini o'rganildi.
- Viloyatda yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini o'zgarishi sharoitida yerdan foydalanish holati tahlil qilindi.
- Viloyatda yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish yo'nalishlarini aniqlash va bu bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'ekti Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish masalalaridir. Tadqiqot ishining predmeti sifatida yer resurslaridan foydalanish qonuniyatlari, xususiyatlari hamda ulardan foydalanish samaradorligini o'rganish kabilar o'rin olgan.

Ishning metodologik asoslari va tadqiqot usullari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishga oid qonun xujjatlari, hamda mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qonuniyat va tamoyillar tashkil qiladi. Bitiruv malakaviy ishi yozish jarayonida iqtisodiy-geografik taqqoslash, mantiqiy fikrlash, kartalashtirish, statistik tahlili, bashoratlash va boshqa usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer resurslaridan foydalanish ahamiyati katta va istiqbolida bu rol yanada oshib boradi. SHu nuqtai nazardan ham, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tizimida yer resurslaridan foydalanish masalalarini tadbiq qilish orqali, mahalliy xo'jaliklar iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda mustahkamlash yo'nalishlarini ishlab chiqish imkoni mavjud. Mazkur bitiruv malakaviy ishidan tadqiqot ob'ekti hisoblangan Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha mahalliy dasturlar ishlab chiqishda hamda ularni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashda foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, 64 betdan iborat, shundan 60 yozma matn bet, 11 ta jadval 1-karta-sxema xulosa, 14 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'ZBEKISTONDA YER RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIIY ASOSLARI

1.1. Yer resurslari qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida

Yer resurslari qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarni sifati, miqdori ko'p jihatidan yer resurslarining holatiga bog'liq. Yer insonning bebaho boyligi, yer o'simliklar dunyosi bilan birgalikda insonni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, kiyintiradi, qurilish materiallari va tibbiy ashyolar bilan ta'minlaydi.

Yerni jamiyatdagi ahamiyati beqiyosdir. Unda fuqarolar yashashi uchun binolar quriladi. Turli maxsulotlar yetishtiriladi. Demak, yerning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyati ulkan. Chunki u shu tarmoqning eng asosiy ishlab chiqarish vositasi xisoblanadi. Yerga urug', ko'chat ekib, ishlov berish natijasida turli xildagi maxsulotlar yetishtiriladi. Demak, tarmoqda yetishtiriladigan barcha turdagi maxsulotlar yerdan, suvdan foydalangan xolda olinar ekan. Yer ingliz iqtisodchisi Uil'yam Pettining aytishicha, «yer boylikning onasi, suv otasidir». Respublika dexqonchiligi sug'orishga asoslangan. SHuning uchun suv ham yer kabi eng zarur vosita xisoblanadi. Bu borada, avvalo, yerlarning unumdorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Aytish kerakki, bu yo'nalishdagi ishlarning ko'lami yil sayin kengayib borayotganiga qaramasdan, sug'oriladigan yerlarning mavjud meliorativ holati katta tashvish uyg'otmoqda. Shuning uchun ona-yerni muhofaza qilish har bir kishining muqaddas burchidir. Yer kurrasining quriqlik maydoni (muzliklarni ham qo'shib hisoblaganda) 15 mlrd ga teng, shundan muzliklar maydoni 1,7 mlrd ga, yaylovlarni maydoni 3 mlrd ga, haydalgan yerlar maydoni 1,5 mlrd ga teng, qariyb 400 mln ga yer sug'oriladigan dehqonchilik bilan band. Lekin yer resurslari turli sabablarga ko'ra muomaladan (har yili qariyb 15 mln ga) chiqib boradi, chunonchi, sanoat ob'ektlari va shaharlar qurilishi uchun taxminan 8 mln ga, eroziya natijasida 3 mln ga, inson tomonidan zaharlanish natijasida 2 mln ga yer, suv bosishi, sho'rlanish tufayli esa 2 mln ga atrofida yerlar ishlab chiqarish muomalasidan chiqib bormoqda. Butun

tsivilizatsiya davrida insoniyat turli sabablarga ko'ra (eroziya, sho'rlanish, shaharlar ostida, yo'llar qurilishi, suv omborlari va boshqalar) jami bo'lib taxminan 2,5-3 mlrd gektar yer maydonidan ajraldi.

Yer po'stining eng ustki unumdor qismi tuproq bo'lib, u litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferada uzoq vaqt mobaynida bir biri bilan bog'liq bo'lgan fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlar natijasida vujudga kelgan. Tuproq unumdorligini vujudga kelishida tirik mavjudotning, ayniqsa mikroorganizmlarning roli katta bo'lib, ular hayot faoliyati va halok bo'lishi natijasida tuproqni ma'lum miqdorda organik moddalar bilan boyitadi. Shu tariqa tuproqning ustki qatlamlarida unumdor qismi vujudga keladi. Inson yashash uchun zarur bo'lgan ozuqa resurslarini ham, okean va dengiz resurslarini hisobga olmaganda, o'z hayoti uchun kerak bo'lgan hamma narsani tuproqdan oladi. Hozir yer shari quruqlik yuzasining 10,8% i haydab ekin ekiladigan yerlardir. Yer sharidagi ekinzorlar umumiy maydonining faqat 14% i sug'oriladigan yerlardir; ana shu sug'oriladigan yerlardan olingan hosil hozir dunyo aholisining 50 foyizini oziq-ovqat bilan ta'minlamoqda. Ko'rinib turibdiki, planetamizda hali ekin ekishga va sug'orishga yaroqli yer resurslari ko'p.

Dunyo yer resurslari 13393 mln.ga bo'lsa, shundan 4041 mln.ga (30,1%) o'rmonlar bilan qoplangan yerlar, 2987 mln.ga (22,3%) o'tloq va yaylovlar, 1457 mln.ga (10,8%) haydalanadigan va ekin ekiladigan yerlar, qolgan 4908 mln.ga (36,8%) qumli cho'llar, muzlik va qorliklar, qishloq va shaharlar, sanoat ob'ektlari ishg'ol qilgan yerlarga to'g'ri keladi. Sayyoramiz tuproq qatlami tabiiy holatining o'zgarishiga qishloq xo'jalik ishlari bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar – tuproqqa mineral o'g'itlar solish, tuproq sho'rini yuvish; yerlarni tekislash) va h.k.lar muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining maydoni 448,9 ming km². Shundan qishloq ho'jaligida foydalanadigan yerlar 28081 ming ga, sug'oraladigan yerlar maydoni 4,2 mln ga dan ziyod, yaylovlar va pichanzorlar 22965,0 ming ga, lalmi haydalanadigan yerlar 765 ming ga, o'rmonlar maydoni 1,3 mln ga, foydalanmaydigan davlat zahirasidagi yerlar maydoni 15309,9 ming ga ni tashqil

qiladi. Quruq iqlim sharoitida sug'oriladigan yerlar beqiyos ahamiyatga ega. Obikor yerlar respublikada yer maydonining 10% qismini egallagan holda o'simlikshunoslik bo'yicha yetishtiriladigan barcha mahsulotning 95% ini yetkazib beradi. Sug'oriladigan yerlarning har bir qarichidan samarali foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularning mahsuldorligini barqaror oshirib borish, biror gektar maydonning ham muomiladan chiqib ketishga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi lozim.

Avvalari respublikada paxta yakka hokimligi hukm surgan davrlarda asosiy maydon (qariyb 2 mln ga yer) g'o'za bilan band bo'lgan, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng sug'oriladigan yerlardan foydalanish strukturasi jiddiy o'zgardi. Boshqali ekinlarning maydonini 1 mln. gektarga qadar kengaytirilganligi g'alla mustaqilligiga erishish niyati bilan bog'liq. Albatta, g'alla ham, yem-hashak ham mamlakat uchun zarur. Lekin beda ekiladigan maydonning 673 ming ga dan 232 ming ga qadar kamaytirilishi sug'orma yerlarining mahsuldorligiga salbiy ta'sir etishi sezilmoqda, shuningdek chorva uchun ham ozuqa kamayib bormoqda. Paxta hosildorligi har gektar maydondagi 26 ts dan 22,4 ts gacha kamaydi, yem-hashakli ekinlarniki esa 1,5 marta pasaydi. To'g'ri tan olish kerakki, sug'orma yerlarning ekinlar ekish strukturasi haligacha takomillashmagan. Biznincha, tuproq unumdorligiga ziyon yetkazmagan holda, uning mahsuldorligini borgan sari orttirib borish asosiy maqsad bo'lishi lozim. Turli sabablarga ko'ra har yili ayrim maydonlarga ekinlar ekilmay qolib ketishi sodir bo'ladi. O'rtacha 130-140 ming gektar sug'orma yerlardan foydalanilmaydi. Chunonchi, 2014 yilda Qoraqolpog'iston Respublikasida 22,3, Qashqadaryoda-17,4, Sirdaryo viloyatida 11,3 ming ga yer foydalanilmagan. Lalmi yerlar respublika tog' oldi va past tog'larda mavjud bo'lib, ularning jami maydoni qariyb 500 ming gektarga yaqin. Olinadigan g'alla hosili o'rtacha (atmosfera yog'inlarining miqdoriga qarab) 8-12 tsen. gacha boradi. 2014 yil seryog'insochin bo'lganligi tufayli adirlar va tog'lardagi lalmikor yerlarda bug'doy hosildorligi 14-18 tsen. ga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1958-sonli qarori va mazkur qaror asosida Vazirlar Mahkamasining 39-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan 2013-2017 yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish dasturi qabul qilindi va dasturni bajarish doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirilgan: - 3,85 ming km ochiq kollektor-drenaj hamda 1,26 ming km yopiq-yotiq drenajlarni tarmoqlarini, 907 dona tik drenaj, 35 ta meliorativ nasos stantsiyasi, 226 dona gidrotexnik inshootlarni qurish va rekonstruktsiya qilish; - 2,1 ming km kanallarni tozalash, 96 dona gidrotexnik inshoot, 97 dona nasos stantsiya, 36 km nasos stantsiyalarning bosimli quvurlarini ta'mirlash, 36 km qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari olib borish va boshqalar; - fermer xo'jaliklari hisobidagi 558,5 ming km uzunlikdagi sug'orish tarmoqlari, jumladan 111,0 ming km beton kanal va lotoklar, 174,1 ming gidrotexnik inshootlar, 11,5 ming dona nasos agregatlar, 252,6 ming dona suvni boshqarish inshootlari ta'mirlanadi va suv o'lchash vositalari bilan jihozlash ishlari amalga oshiriladi. Hozir respublikamizdagi sug'oriladigan yerlarning atiga 1,2 mln. gektar qismi shamol eroziyasidan himoya qilingan. Barcha yerlarning eroziyadan saqlash uchun mavjud bo'lgan 40 ming gektar ihotazorlar maydonini 112 ming gektarga yetkazish lozim.. Shuning uchun ham eroziyaga duchor bo'lgan yerlarda ekinzorlardan olinadigan hosil to'g'i eroziyaga uchramagan me'yordagi yerlarga nisbatan ikki marta kam bo'lishligi aniqlangan. Irrigatsiya eroziyasi daryolarning 1-2 terrasalarida, konus yoyilmalarining yuqori qismlarida keng tarqalgan. Ayniqsa, Toshkent viloyatining Yangiyo'l, Chinoz, Piskent, Ohangaron, Jizzah viloyatining G'allaorol, Surhondaryo viloyatining Boysun, Qashqadaryo viloyatining Qamashi, CHiroqchi, Yakkabog', Kitob, Shahrisabz, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Urgut va boshqa tumanlarida rivojlangan.

1-jadval

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi, ming gektar

| Viloyatlar | Sug'oriladigan yerlar maydoni | Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha taqsimlanishi | | | |
|-------------------------------|-------------------------------|---|---------|----------|-----------------------|
| | | sho'rlanmagan | kuchsiz | o'rtacha | kuchli va juda kuchli |
| Andijon | 275,1 | 245,2 | 14,9 | 14,9 | - |
| Buhoro, Navoiy | 271,8 | 15,4 | 160,1 | 62,5 | 33,8 |
| Jizzah | 290,6 | 51,7 | 161,1 | 73,3 | 4,1 |
| Qashqadaryo | 497,4 | 275,1 | 162,3 | 45,9 | 13,7 |
| Namangan | 282,4 | 233,6 | 33,1 | 2,7 | 0,9 |
| Samarqand | 370,3 | 351,2 | 12,9 | 5,3 | 0,9 |
| Surhondaryo | 326,2 | 196,8 | 75,4 | 50,2 | 3,8 |
| Sirdaryo | 296,5 | 12,9 | 220,9 | 48,7 | 13,9 |
| Toshkent | 377,1 | 366,9 | 7,8 | 2,1 | 0,3 |
| Farg'ona | 351,6 | 140,8 | 173,1 | 32,0 | 5,7 |
| Horazm | 270,8 | - | 162,3 | 77,5 | 31,0 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 500,9 | 35,9 | 230,1 | 181,9 | 53,0 |
| O'zbekiston Respublikasi | 4220,2 | 1942,9 | 1483,9 | 628,0 | 165,6 |

Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi

Yerlarni kapital va joriy tekislash, ko'zgi va qishki sho'r yuvish ishlarini o'z vaqtida sifatli o'tkazish darkor. 2013-2017-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturini qabul qilindi.

2-jadval

O'zbekistonda eroziyaga berilgan tuproqlar maydoni

| Eroziya turlari | Maydon | | o'rtacha va kuchli yuvilgan, yoki deflyatsiyaga uchragan |
|-----------------|---------|---|--|
| | ming ga | % | |
| | | | |

| | | | |
|---|---------|------|--------------|
| uproq eroziyasi, shu jumladan: | | | |
| a) tog' yaylovlarda va pichanzorlarda | 5644,9 | | 3700,0 |
| b) haydaladigan yerlarda | 1422,3 | 12,7 | 705,6 |
| lalmi yerlarda jala eroziyasi | 700,4 | 3,1 | 416,5 |
| sug'oriladigan yerlarda | 721,9 | 1,5 | 289,1 |
| 2.Deflyatsiya, shu jumladan: | 21873,4 | 1,6 | - |
| cho'l yaylovlarida | 20031,9 | 48,7 | - |
| sug'oriladigan yerlarda | 1841,5 | 44,6 | - |
| 3.Tuproq eroziyasi va deflyatsiyaning birgalikda ro'y berishi | 1929,4 | 4,1 | 775,9 |
| 4.Eroziya va deflyatsiyaga berilmagan yerlar | | 4,3 | |
| Jami | 14024,4 | | - |
| | 44884,4 | | - |
| | | 31,2 | |
| | | 100 | |

Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi

Yerni iqtisodiy baholash deganda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatidagi nisbiy bahosi tushuniladi yoki boshqacha aytganda, turli sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yerlarning nisbiy daromad miqdori anglanadi. Yerni iqtisodiy baholashning bosh mohiyati uni sifatining qishloq xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat unumdorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Yerni iqtisodiy baholash maqsadida uni materiallar bilan ta'minlash uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligini rejalashtirish va tashkil qilish niyatida hamda yer balansini, yerni baholashning hududiy birliklarini hisobga olish uchun barcha yerlarni toifalarga bo'lish maqsadga muvofiq: xo'jalik ichidagi va umumiy yerga bo'linadi. Birinchi guruhdagi yerlarga xo'jalikning yerdan foydalanish to'zilasiga muvofiq xo'jalik uchun umuman ajratilgan yerlar, fermerlar, dehqon va boshqalarga foydalanish uchun berilgan yerlar kiradi; ikkinchi guruhga xo'jalik jihatidan foydalaniladigan (ekinzorlar) yer massivlari, chunonchi, paxta, sholi, bug'doy, yem-xashak, poliz, bog', o'rmon va boshqalar ekiladigan yerlar kiradi.

Hosildorlik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining so'ngi natijasi, shuning uchun ham yerning bahosini qayd qiladi. Ekinlardan olingan hosil miqdoriga qarab, dalalarning bahosini aniqlash mumkin, tuproqning mahsuldorligi qiymati ravshan bo'ladi. Tuproq mahsuldorligi barcha tabiiy va sun'iy meliorativ ahvolni to'liq mujassamlashtiradi. Yerni iqtisodiy baholash ikki ko'rsatkichda amalga oshiriladi; yalpi mahsulot bo'yicha amalga oshirish yerning ishlab chiqarish vositasi sifatida maydon birligi bo'yicha qiymatini bilishga imkon beradi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish hajmini maydon birligida ajratilgan holda rejalashtirish uchun, ekin maydonidan oqilona foydalanish, soliq tizimini to'g'ri amalga oshirish va boshqalarni aniqlashda zarur. Sof daromad bo'yicha yerni iqtisodiy baholash maydon birligidan olinadigan daromadni chamalashda qo'l keladi, bu hol ajratilgan soliq, rentalarni aniqlashda zarur omil hisoblanadi. Hosildorlik va sof daromad xo'jalik hududida oldindan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi va undan keladigan sof daromadni rejalashtirishda eng ishonchli mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Kadastr (fran so'zcha-reestr, ro'yxat) - ob'ekt yoki hodisa to'g'risida jamlama sifatida va miqdoriy ma'lumotlarning tizimli majmuasi hisoblanadi, ko'p hollarda ular iqtisodiy baholashni nazarda tutadi. Kadastrning turlari ko'p. yer kadastri quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish; b) yerni miqdoriy hisobi; v) yerning sifati; g) tuproq bonitirovkasi; d) yerlarni iqtisodiy baholash.

Tuproq bonitirovkasi (lotin tilida - asl, sifatli) - tuproqning unumdorligi bo'yicha nisbiy baholashdan iborat. Qiyosiy baholash tuproqlarni majud ob'ektiv xususiyatlari va belgilari asosida amalga oshirish, bular qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishida eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bonitirovkada miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) qo'llaniladi. Ular bir tuproqni ikkinchi tuproqdan qanchalik yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunda tuproqning eng muhim xususiyatlari va hosildorligi e'tiborga olinadi. Boshqacha aytganda, tuproq bonitirovkasi-bu, tuproqning hosildorligini ball hisobida agronomik inventarizatsiya qilish bo'lib, ball tuproqning asosiy xususiyatlari va

eng muhim qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha hosildorligi hamda tabiiy yaylov (pichanzor) larning mahsuldorligi hisoblangan ko'rsatkichidir. Tuproq bonitirovkasi yer kadastrining asosiy qismlaridan biri bo'lib, yer resurslarini miqdor va sifat jihatdan hisobga olish hisoblanadi. Miqdoriy hisobga olishning mohiyati yerdan foydalanish va ekinlarning turi bo'yicha maydoni hisobida taqsimlanishni ko'rsatadi. Haydaladigan, sug'oriladigan yerlar, bog'lar, pichanzor, yaylovlar va boshqalarning maydoni hisobga olinadi.

Bonitirovkada paxta, don, sholi, yem-xashak, qand lavlagi yetishtirish, tabiiy o't va o'rmonlar, bog'lar tashkil qilish uchun eng qulay sharoitlarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. U qishloq xo'jalik mutaxassislariga sug'orma, lalmi yerlardan, yaylovlardan jadal foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Bonitirovka asosida tuproq sifatiga mos keladigan hosildorlikni oldindan belgilash, tuproqqa solinadigan mineral va organik o'g'itlar miqdorini aniqlash mumkin. Bonitirovka tuproqning qanday chora-tadbirlarga muhtojligi, eroziya va deflyatsiya, qurutish melioratsiyasi, fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish zarurligini hudud bo'yicha hamda ayrim areallarda muntazam keng miqyosda qo'llashni asoslaydi.

MDH mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda 100 ballik baholovchi shkala qabul qilingan. Ballarni ishlab chiqish yer to'zish davlat loyiha instituti («O'zgiprozem») oliy o'quv yurtlarining tuproqshunoslik kafedralari, Tuproqshunoslik va agrokimyo institutida mahalliy tabiiy va iqlimiy sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bonitirovka ballarini har bir baholash belgisi bo'yicha hisob-kitob qilish qabul qilingan quyidagi formula asosida amalga oshiriladi: $B = \frac{3\phi \times 100}{3M}$, Bunda: B-tuproq balli; Z_f -biror belgi (gumus miqdori, azot, fosfor, kaliy va b.); Z_m -shu belgining qiymati, u 100 ball hisobida olinadi. Balli baholash tuproqlarning andozali ko'rsatkichlari asosida bajarilishi lozim, o'shanda tuproqdagi gumus miqdori 100% ga teng bo'ladi. Masalan, sug'oriladigan och bo'z tuproqda gumus miqdori, aytaylik, 1,3% bo'lsa, u andozali tuproqda 2,3% teng deb hisoblash bilan

yuqoridagi formula asosida quyidagi miqdorga ega bo'lamiz: $1,3 \times 100 : 2,3 = 57$. Bu misoldagi sug'orma och bo'z tuproq 1 ga maydonda 57 ballga teng. Mutaxassislar tuproq bonitirovkasi ballarini tasniflash natijasida quyidagi shkalani taklif qilishgan.

Jadvaldan ma'lumki yaxshi, hosildor tuproqlar 71-100 ball, o'rtachasi -41-70 ball, yomoni – 11-40 ball bilan tavsiflanadi. Yuqorida misol sifatida ko'rsatilgan 57 ballga ega bo'lgan sug'orma och bo'z tuproq o'rtacha darajadagi sifatga ega. Unumdorligi turlicha bo'lgan yerlarda yetishtirila oladigan paxta va boshqa qishloq ho'jalik ekinlarining o'rtacha ta'miniy hosildorligi qanday bo'lishini aniqlash uchun muayyan tuproq boniteti ballining bahosiga ko'paytirish kerak. Eng yaxshi (100) yerlarda qishloq ho'jalik ekinlarining hosildorligi turlicha baholanadi. Yuqorida keltirilgan ball (57) ni paxta nuqtai nazardan qaralsa, u holda paxtaning o'rtacha hosildorligi jadval bo'yicha gektariga 22,8 tsentner. gektar. teng bo'ladi: $57 \times 0,4 = 22,8$ tsentner. Ishlab chiqarishda jamoa ho'jaligi yoki tumanning o'rtacha ballik bahosini bilishga to'g'ri keladi, chunki hududda tuproqning kichik turi bir necha xil bo'lishi mumkin. Tabaqalashgan ma'lumotlarga ega bo'lish natijasida ko'p miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) bilan muomala qilishga to'g'ri keladi. Bu holda quyidagi formula asosida o'rtacha ballga ega bo'linadi:

$$B_o = \frac{B_1M_1 + B_2M_2 + \dots + B_nM_n}{M_1 + M_2 + \dots + M_n} \quad \text{Bunda: } B_o - \text{o'rtacha ball; } B_1, B_2 \dots B_p - \text{yer}$$

3-jadval.

Tuproq boniteti klasslarining shkalasi.

| Bonitet klassi | Bonitet balli | Tuproqning sifatliy tavsifi |
|----------------|---------------|-----------------------------|
| 10 | 91-100 | Yaxshi |
| 9 | 81-90 | |
| 8 | 71-80 | |

| | | |
|---|-------|--------------------------------|
| 7 | 61-70 | O'rta |
| 6 | 51-60 | |
| 5 | 41-50 | |
| 4 | 31-40 | Yomon |
| 3 | 21-30 | |
| 2 | 11-20 | |
| 1 | 1-10 | Dehqonchilikda foydalanilmaydi |

Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi

massivga kiruvchi tuproq boniteti; $M_1, M_2...M_p$ – tuproqlarning maydonlari. Hudud bo'yicha olingan o'rtacha ball qishloq ho'jalik ishlab chiqarishining hohlagan uchastkalarini solishtirish va baholash imkoniga ega.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari uchun quyidagi tuproq bonitet ballari (sug'oriladigan yerlar) aniqlangan. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi – 40-63, Xorazm – 60-70, Jizzax - 53-58, Buxoro – 58, Samarqand – 67, Navoiy – 58, Sirdaryo – 53, Toshkent – 66, Andijon – 65, Namangan – 66, Farg'ona- 66, Qashqadaryo- 54, Surhondaryo – 68. Ushbu ballar o'rtacha bo'lib, viloyatlar bo'yicha ularning tebranishi katta.

4-jadval.

100 balli yerlarda qishloq ho'jaligi ekinlari hosildorligini baholash.

| | | |
|--------------|--|--------------------------|
| Ekin turlari | 100 balli eng yaxshi yerda yetishtirilgan hosil, ga-ts | 1 ballning bahosi, ga-ts |
|--------------|--|--------------------------|

| | | |
|--|-----|------|
| Paxta | 40 | 0,40 |
| Beda, birinchi yil, sof holda (pichan uchun ekilganda) | 100 | 1,00 |
| Qoplama ekin tariqasida ekilganda | 75 | 0,75 |
| Don uchun ekilgan makkajo'gori | 75 | 0,75 |
| Ikkinchi va uchinchi yilgi beda, pichan | 200 | 2,00 |
| Boshqa don ekinlari: | | |
| sof holda ekilganda | 60 | 0,60 |
| qoplama ekin tariqasida ekilganda | 25 | 0,25 |
| Silos uchun ekilgan makkajo'gori | 650 | 6,50 |
| Ozuqabop ildizmevali ekinlar | 950 | 9,50 |
| Bir yillik o'tlar (ko'k massa) | 300 | 3,00 |
| Oraliq ekinlar (ko'k massa) | 260 | 2,50 |

Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi

Yerlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha toifalashni sifat jihatidan baholash, deb qarash lozim. Sifat jihatidan baholash negizida tuproqlarni bonitirovka qilish amalga oshiriladi. Tuproqlarni guruhlashtirish bonitirovka va yer kadastri tizimida amalga oshirilishi asosan tuman, viloyat, respublika miqyosida tuproqlarni baholash maqsad qilib qo'yilgan taqdirda bajariladi.

1.2. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish


O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44896,9 ming ga, shundan 44410,3 ming gektari yoki 98,9 foizi turli xil korxonalar, tashkilot va muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolar foydalanadigan yerlar bilan band. O'z navbatida, bu yerlarning 4313,3 ming gektarini (9,7 %) sug'oriladigan yerlar tashkil qiladi. Yer fondi qaysi maqsadda foydalanishiga qarab 8 toifaga bo'linadi, ularning eng asosiysi qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar hisoblanadi. Ushbu toifadagi yerlar mamlakatimizda 25258,5 ming ga bo'lib, u jami yer fondining yarmiga teng. Miqdor jihatidan keyingi o'rinlarda zaxira yerlar (23,4 %) hamda o'rmon fondi yerlari ajralib turadi (19,5%).

Jami ekin yerlar respublikada 4071,0 ming ga. U qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 18,3 foiziga teng, shundan sug'oriladigan yerlar 3313,1 ming ga. Shuningdek, mamlakatimizda, xususan Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tabiiy holda sug'oriladigan yoki lalmi (bahorikor) yerlar

ham bor. Ular nisbatan kam miqdorda bo'lsada, Surxondaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida ham bor. Lalmikor yerlarning umumiy maydoni 758 ming gektar. Odatda, bunday hududlarda yog'in-sochin miqdori yiliga kamida 200 mm dan ortiq va ular asosan bahor oylariga to'g'ri keladi [10]. Qishloq xo'jaligida foydalanadigan boshqa yerlar orasida yaylov va pichanzorlar ajralib turadi. Ularning maydoni 20756 ming ga yoki qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 82,2 foizini tashkil etadi. Ko'pyillik daraxtzorlar 351 ming ga, bo'z yerlar 80,5 ming ga .

1-rasm. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida foydalanadigan yer turlari

(01.01.2013 y.).



Расм tarhum professor A. Soliyev tomonidan tuzilgan.

Har qanday mamlakatning yer maydoni uning muhim milliy boyligi sanaladi. Biroq, bu borada, eng avvalo, qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar, xususan bizning sharoitimizda sug'oriladigan yerlar katta ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida, garchi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni qisqargan bo'lsada, bevosita ekin ekiladigan yerlar deyarli o'zgarmagan.

Ekin yerlar ikki qismdan iborat: sug'oriladigan hamda lalmi yerlar. Ular orasida sug'oriladigan yerlar, avval ta'kidlanganidek, eng qimmatbaho hisoblanadi. Mustaqillik yillarida respublikada sug'oriladigan yerlar biroz

qisqargan. Chunonchi, bunday yerlar 1990 yilda jami 3407,3 ming gektarga teng bo'lgan holda, 2014 yilda ular 3313,4 ming gektarni hosil qilgan; ko'paygani asosan Jizzax, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari hisobidan sodir bo'lgan. SHuningdek, Toshkent, Sirdaryo viloyati hamda Qoraqalpog'istonda ham ijobiy jarayon kuzatiladi. Ayni vaqtda qolgan hududlarda sug'oriladigan yerlar maydoni, oz bo'lsada, kamayib borgan. Raqamlarga murojaat qilaylik: Jizzax viloyatida 2000 yilda sug'oriladigan ekin yerlar 256,6 ming ga, 2014 yilda esa 264,5 ming ga; shunga mos holda, Qashqadaryoda 417,7 va 424,1 ming ga; poytaxt viloyatida 298,9 va 305,1 ming ga. Ko'rinib turibdiki, bu mintaqalarda o'sish qayd etiladi. Nisbatan ko'proq qisqarish kuzatilgan viloyatlarda, jumladan, Samarqandda yuqoridagi ko'rsatkichlar 261,9 va 253,9, Surxondaryoda 245,6 va 241,7, Farg'onada 256,3 va 249,3, Xorazmda 212,5 va 205,4 va xokazo. Eng oz sug'oriladigan ekin yerlarga ega bo'lgan Navoiy viloyatida ham qisqarish qayd etiladi: 92,1 va 91,0 ming ga. Umuman olganda, sug'oriladigan ekin yerlar maydoni bo'yicha Qashqadaryo (424,1 ming ga), Qoraqalpog'iston Respublikasi (423,6) va Toshkent viloyati (305,1 ming ga) oldinda. Shu qatorda Jizzax, Surxondaryo hamda Samarqand viloyatlari ham biroz yuqori ko'rsatkichlarga ega (250-265 ming ga). Navoiy viloyatini hisobga olmaganida, qolgan mintaqalarning har birida bunday yerlar 200 ming gektardan kam emas. Nisbiy ko'rsatkichlarda, Qashqadaryo viloyati respublika jami ekin maydonlarining 16,8 foizini, Jizzax 11,9 foizini, Samarqand 10,7 foizini, Qoraqalpog'iton 10,4 foizini, Toshkent viloyati 8,4 foizini o'zida mujassamlashtiradi. Keyingi o'rinlarda Surxondaryo, Sirdaryo hamda Farg'ona viloyatlari turadi. Eng past raqam esa Navoiy viloyatiga tegishli.

Qoraqalpog'iton Respublikasi hamda Andijon, Buxoro, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ekin yerlarning 100 foizi sug'oriladigan yerlardan iborat. Bu borada katta farq Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida kuzatiladi. Shu o'rinda *yerdan samarali foydalanish darajasi* yoki koeffitsiyenti to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer turlarining umumiy yer maydoniga nisbati,

bevosita qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning, xususan sug'oriladigan yerlarning jami yer fondiga nisbati orqali aniqlanadi. Albatta, bunday ko'rsatkichlar viloyatlarning tabiiy sharoiti, ayniqsa suv resurslari bilan ta'minlanganligiga qarab, ancha geografik tafovut yoki farqlarga ega. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqoridagi ko'rsatkich qishloq xo'jaligi yer turlari bo'yicha 3,2, ekin yerlar bo'yicha 0,26, sug'oriladigan yerlar ham shu darajada. Navoiy viloyatida u mos ravishda, 8,1; 1,0 va 0,8. Buxoro viloyatida ham, uning yuqoridagi hududlar singari cho'l tabiatli bo'lganligi sababli, mazkur ko'rsatkichlar ancha past.

Vodiy va vohalarda esa ko'rilayotgan koeffitsiyent yuqori bo'lib, bu ularda yerdan agroiqtisodiy jihatdan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligining ko'proq yoki nisbatan intensiv rivojlanishidan dalolat beradi. Chunonchi, Andijon viloyatida umumiy qishloq xo'jaligi yer turlari uning jami maydonini 60,2 foizini, ekin yerlar 47,4, sug'oriladigan ekin yerlar ham shuncha foizga barobar. Ma'lumki, Sirdaryo viloyati asosan sug'orma yerlarni o'zlashtirish negizida tashkil etilgan. Binobarin, bu mintaqada yuqoridagi ko'rsatkichlar ancha katta, mos holda, 67,7; ekin yerlar 58,6 %. Shuningdek, Xorazm viloyati ham bu borada birmuncha yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega. Xususan, uning o'ng sohil, ya'ni Hazorasp tumanining cho'l qismi hisobga olinmasa, mintaqa hududi qadimdan o'ta yuqori darajada o'zlashtirilganligi, sug'oriladigan yerlarning ko'pligiga ko'ra respublikada ancha oldingi o'rinlarda turadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jalik yerlari turlari tarkibida pichanzor va yaylovlar ham katta maydonlarni egallaydi. Bu xususda Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi keskin ajralib turadi. Bu esa, chorvachilikni, eng avvalo, uning go'sht, jun-go'sht yo'nalishini rivojlantirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining bunday yer turlari Andijon, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida juda oz, Namanganda ham bu ko'rsatkichlar uncha yuqori emas. Umuman olganda esa, respublika bo'yicha pichanzor va yaylovlar jami qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 66,4 foizini tashkil qiladi. Yuqoridagi statistik raqamlar va ularning qisqacha tahlilidan

ko'rinib turibdiki, jami yer fondi va umumiy qishloq xo'jaligi yerlari tarkibida ekin yerlar, jumladan sug'oriladigan yerlar uncha katta maydonlarni egallamaydi. Shu bois, mavjud sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, ularning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini, qishloq xo'jaligining samaradorligini oshirish muhim va dalzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda sug'oriladigan yerlarning 8 foiziga yaqini meliorativ xolati yomon yerlar hisoblanadi. Bu o'z navbatida tuproqlar sho'rlanish darajasining yuqoriligi hamda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi tufayli yuz bergan. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida respublikamizda 2008-2012 yillarga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan Davlat dasturi qabul qilingan. Mazkur maqsadli dastur doirasida mamlakatimiz turli hududlarida, xususan Qoraqalpog'iston, Xorazm, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo va boshqa viloyatlarda katta ishlar amalga oshirildi – drenaj va kollektorlar, zovurlar qayta ta'mirlandi, yerlarning shurini yuvishga jiddiy e'tibor qaratildi. Xozirgi vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining 1/3 qismini meliorativ holati yomon; bu ko'rsatkich Jizzax viloyatida - 11,5%, Navoiyda-10,8%, Sirdaryoda-9,9%, Buxoroda 7,2%, Qashqadaryo viloyatida 6,8% va hokazo. Dehqonchilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi. Uning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi, iqlim sharoitiga bog'liq holda, 50-55 foizni tashkil qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida dehqonchilikning yildan-yilga o'sishi past bo'lgan, ya'ni avvalgi yilga nisbatan hisoblanganda 100 foizdan oshmagan [10].

1.3. Yer resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan mamlakatimizda Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bilan fermer xo'jaliklari, dexqon xo'jaliklari shug'ullanadilar. Ularning yerdan foydalanish xuquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, yer Kodeksi, «Qishloq xo'jalik kooperativlari to'g'risida»gi qonun, «Ijara to'g'risida»gi qonun, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun, «Yer solig'i to'g'risida»gi

qonunlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi bilan «Qishloq xo'jalik kooperativlari to'g'risida»gi qonunga ko'ra qishloq xo'jaligi kooperativlariga berib qo'yilgan yer uchastkalari xususiylashtirish va oldi-sotdi, garov, xadya, ayirboshlash ob'ektlari bo'lishi mumkin emas.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ichida fermer xo'jaliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Fermer xo'jaliklari faoliyatida ham Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish muxim urinni egallaydi. Fermer xo'jaliklariga Yer uchastkalari ijara asosida beriladi yer uchastkasini ijaraga berish muddati «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga ko'ra 10 yildan kam bo'lmasligi, 50 yildan oshib ketmasligi kerak. Yer uchastkasini o'zoq muddatli ijaraga olish shartnomasi qishloq xo'jaligi boshqaruvi va fermer xo'jaligi boshligi tomonidan imzolanadi.

Fermer xo'jaliklariga zaxiradagi yerlar, maxsus respublika fondi yerlari, mehnat resurslari yetarli bo'lmagan xo'jaliklardagi va sug'oriladigan yerlar beriladi. Ularga zarar ko'rib ishlayotgan yoki rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarining yerlari ham berilishi mumkin. Qishloq xo'jalik kooperativlarining yerlari fermer xo'jaliklari kooperativ a'zolari umumiy majlisi qaroriga binoan beriladi va bu qaror asosida tuman xokimi tegishli qaror qabul qiladi. Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasining o'lchami Yer uchastkasini beradigan organ tomonidan har bir muayyan xolatda maxalliy sharoitlarni, shuningdek fermer xo'jaligida ishlovchilar sonini xisobga olgan xolda belgilanadi. SHu bilan birgalikda fermer xo'jaliklariga yer berish miqdorlari qonunda belgilangan. Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunning 5-moddasiga ko'ra, fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam ulchami bir shartli bosh Chorva molga xisoblanganda Andijon, Samarkand, Toshkent, Fargona va Xorazm viloyatlaridan sug'oriladigan Yerlarda kamida 0,3 gektar, Qoraqalpogiston Respublikasi va boshqa viloyatlardagi sug'oriladigan Yerlarda kamida 0,45 gektar, sug'orilmaydigan Yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etishi kerak. Fermer xo'jaliklariga berilgan yer uchastkalari davlat mulki xisoblanadi, shu sababdan u xususiylashtirilishi, oldi-sotdi, xadya, ayirboshlash

ob'ekti bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, fermer xo'jaliklariga ijaraga berilgan uchastkalari ikkilamchi ijaraga ham berilishi mumkin emas.

Dehqon xo'jaliklarining yerdan foydalanish xuquqi O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi (55-modda) hamda «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 2-bobi bilan tartibga solinadi. Ushbu xuquqiy koidalarga binoan qishloq xo'jalik kooperativi har bir a'zosining, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari har bir xodimining oilasiga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va xovli egallagan maydonni ham qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va saxro mintaqada esa sug'orilmaydigan yerlarda 1 gektargacha ulchamda beriladi. Dehqon xo'jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkalarining ulchamlari yer resurslarining mavjudligiga karab hamda oilaning jamoat ishlab chiqarishdagi ishtirokini xisobga olgan holda qishloq xo'jaligi kooperativlarida, boshqa jamoa qishloq xo'jaligi korxonalarida ularning yuqori boshqaruv organlari tomonidan, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari, tashkilotlarida ularning ish beruvchisi (mahmuriyati) qarori bilan belgilanadi, mazkur qaror asosida tuman xokimi tegishli qaror qabul qiladi. Fuqarolarga dehqon xo'jaligi kiritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish xuquqi kimoshdi savdosi asosida sotilishi mumkinligi qonunda ko'rsatilgan (Yer Kodeksining 55-moddasi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasi). «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasiga ko'ra, tashkil etilayotgan dehqon xo'jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish xuquqidan mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanadilar.

Qishloq xo'jalik korxonalari yerdan foydalanish xuquqining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, Qishloq xo'jalik korxonalari o'zlariga berilgan yer maydonlaridan asosan Qishloq xo'jaligi maxsulotlari

yetishtirish uchun foydalanadilar; ikkinchidan, Yer qishloq xo'jalik korxonalari uchun asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lganligi uchun undan oqilona foydalanishlari, uni xosildorligini doimo oshirib borishlari lozim; uchinchidan, Qishloq xo'jalik korxonalari foydalanishida bo'lgan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar oltin fondimizni tashkil etganligi uchun xususiylashtirilishi, oldi-sotdi qilinishi, garov, xadya, ayirboshlash ob'ektlari bo'lishi mumkin emas; turtinchidan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar davlat mulki xisoblanib, qishloq xo'jalik korxonalari uni egallash va undan foydalanish xuquqlariga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida belgilanishicha, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv xavzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallangan yerlarga ajraladi (43-modda). Shuningdek xaydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko'p yillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar ichida sug'oriladigan yerlar muhim o'rinni egallaydi. Sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni taxminlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Yer kodeksining 40-moddasida qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish buyicha majburiyatlari sanab ko'rsatilgan. Bular, yerdan oqilona foydalanish, tuprok unumdorligini oshirish, yer solig'ini yoki yer uchun ijara xaqini o'z vaktida tulash, boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar huquqlarini bo'zmaslik, maxalliy davlat xokimiyati organlariga yerdan foydalanish to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaktida taqdim etish, yerlarni muxofaza etish, mineral ug'itlarni tugri qullash, begona utlarga qarshi ko'rashish, doni eroziyaga uchratmaslik, yerga nisbatan davlatning mulk xuquqini bo'zuvchi

bitimlar to'zmasligi va boshqalardir. foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xuquq va majburiyatlar yig'indisidan iboratdir.

Ma'lumki, yer xuquqiy munosabatlar mazmuni uchta elementdan: yerni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish xuquqidan iborat bo'ladi. Demak, yer xuquqiy munosabatlar sub'ektlarining, jumladan qishloq xo'jalik korxonalarining xuquq va majburiyatlari mazmuni yerni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish xuquqlari bilan xarakterlanadi, ya'ni qishloq xo'jalik kooperativlari yuqorida sanalgan xuquqlarga ega bo'lishlari mumkin. Dastavval ta'kidlash o'rinliki, yer qonunchiligiga ko'ra, qishloq xo'jalik korxonalari yerning egasi bo'lmaganligi sababli uni tasarruf qilish xuquqiga ega emaslar. Bu xuquq faqat yerning egasi bo'lgan davlatda saqlanib qoladi. Demak, qishloq xo'jalik korxonalariga xo'jalik faoliyati yuritish uchun yer berilganda unga nisbatan mulk xuquqi davlatda saqlanib qoladi va hech vaqt u ikkinchi tomonga o'tmaydi. Shunday ekan, qishloq xo'jalik korxonalari yerning egasi xisoblanmaydilar va tasarruf qilish xuquqiga ham ega bo'lmaydilar. SHundan kelib chiqqan xolda aytish mumkinki, qishloq xo'jalik korxonalari faqat yerni egallash va undan foydalanish xuquqiga egadirlar. Sub'ektiv mulk xuquqining asosiy elementi bo'lgan tasarruf etish xuquqi esa mulk egasida, ya'ni davlatda saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining yer bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda yerga egalik xuquqi muxim ahamiyat kasb etadi. Yerga egalik xuquqi tufayli qishloq xo'jalik korxonalari undan mustaqil tarzda foydalanishlari, o'zlari xoxlagan ekin turlarini yetishtirishlari, yetishtirilgan xosilni mustaqil ayirboshlashlari mumkin. Yerga nisbatan egalik xuquqi undan foydalanish xuquqini ham keltirib chikaradi. Yerni egallamasdan turib, undan foydalanib ham bulmaydi. SHuning uchun ularni kup jixatdan bir-biri bilan o'zviy bog'liq deyishi mumkin. SHuni aytish kerakki, yerdan foydalanish xuquqi mustaqil element sifatida yer xuquqiy munosabatlarda aloxida ahamiyatga va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yerdan foydalanish xuquqi deganda, Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan yerning foydali xususiyatlarini o'zlashtirish, Yerni

iktisodiy mahnda ekspluatatsiya qilish tushuniladi. Yer kodeksining 41-moddasida urnatilishicha, yer egalari faoliyatiga davlat, xo'jalik organlari, hamda mansabdor shaxslarning aralashuvi tahkiklanadi. Shuningdek, yer egalarining bo'zilgan xuquqlari tiklanishi kerak. Qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqini kafolatlanganligi, qonun bilan muxofaza qilinishi ular ishlab chiqarish faoliyati barqarorligini ta'minlashga, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirishga olib keladi.

II BOB.SAMARQAND VILOYATIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING XUDUDIIY XUSUSIYATLARI

2.1. Viloyat yer fondi va uning taqsimlanishi

Tabiiy boyliklar orasida yer va suv resurslari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, har qanday davlatning iqtisodiy qudrati mana shu resurslarga bog‘liqdir. O‘zbekistonda yer, suv resurslari va ulardan foydalanish hozirgi davrda eng dolzarb muammolardan biridir. Mamlakatimizda yer va suvga bo‘lgan talabi yildan-yilga ortib borishi, undan tejab-tergab foydalanish, ularni turli omillar ta’sirida ifloslanishidan saqlash va muhofaza qilish muhimdir.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohatlarni ya’nada chuqurlashtirish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qancha qonun va farmonlar qabul qilindi. Shulardan yer, suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi “Yer to‘g‘risidagi qonun”, “Yer kodeksi”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi”, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida” va boshqa qonunlar hisoblandi. Bunda yer va yerdan foydalanishni boshqarish vazifalari, undan ilmiy asoslangan holda oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish va yaxshilash, yerdan samarali maqsadda foydalanishni ta’minlashdan iboratdir. Shuningdek suv resurslaridan kompleks foydalanish, suv ta’minotini yaxshilash, aholini toza ichimlik suvi bilan, sug‘orish dehqonchilikni amalga oshirish va rivojlantirish uchun yetarli darajada suv bilan ta’minlash belgilandi. Chunonchi Samarqand viloyatida ham mavjud resurslardan samarali foydalanishga katta e’tibor berilmoqda.

Samarqand vohasi qadimdan sug‘orib kelinadigan yer resurslariga boy viloyatdir. Zarafshon daryosi va uning atrofidagi sug‘orish shoxobchalarining mavjudligi bu hududda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uning zamirida turli xildagi maxsulotlar ishlab chiqarish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Samarqand viloyati Respublikamizda qishloq xo‘jaligi rivojlangan viloyatlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatning 1/10 qismidan ko‘proq qishloq xo‘jalik mahsulotini beradi. (A.S.Soliev va boshqalar 2003y). Viloyat qishloq xo‘jalik

ko'p tarmoqli bo'lib, uning asosiy tarmoqlari dehqonchilik va chorvachilikdan iboratdir. Viloyatda dehqonchilik asosan sug'oriladigan va lalmikor yerlarda mavjud. Dehqonchilikni asosiy qismini sug'oriladigan yerlardan dehqonchilik tashkil etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra viloyat qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 1677,3 ming gektarni tashkil etadi. Bu yerlar haydalaniladigan ekin maydoni 26,1 foizni (shundan: sug'orma dehqonchilikda 15,6%, lalmikor erlar 10,5 %), yaylovlar 48,4 % ni tashkil etadi. Samarqand viloyati dehqonchilikda paxta, don, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot va poliz maxsulotlari tamaki hamda oziqa ekinlari etishtirishga ixtisoslashgan. Chorvachilikda qoramolchilik, qorako'lchilik, parrandachilik, pillachilik tarmoqlari asosiy o'rinni egallaydi. Viloyatda jami ekin maydonlari 362,1 ming (2016 y. 01.01.)ga bo'lib, shuning 184,9 ming gektari don ekinlari (51,6 %), 94,6 ming ga paxta (25,9 %), 29,1 ming gektariga sabzavot va poliz (8 %), 11,7 ming ga kartoshka (3,2 %), 5,8 ming gektariga tamaki (1,6 %), 23,3 ming ga oziqabop ekinlar (5,4 %) va boshqa ekinlar 10,6 ming ga (2,9 %) ni tashkil etadi. Viloyatda 2015 yilda 875,6 ming t don, 228,1 ming t paxta, 413,3 ming t meva, 497,3 ming t uzum, kartoshka 619,2 ming t, sabzavot va poliz 1767,9 ming t, va tamaki 8,2 ming tonna etishtirildi. Viloyat qishloq xo'jaligida maxsulot ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan barcha turlar bo'yicha o'sish kuzatilgan. Masalan, don etishtirish 107 % ga kartoshka 108 %, sabzavotlar 111,6 % va poliz ekinlari 121 % ga oshgan. Viloyatda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Hozirgi paytda viloyatda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini asosiy qismi sug'oriladigan yerlarda yetishtirilmogda shu sababli yerlardan samarali foydalanish va ularni mahsuldorligini saqlab qolish muhimdir. Joylarda almashlab ekishga kam e'tibor berilmogda. Jumladan sug'oriladigan yerlarda paxta, don ekinlarini boshqa oziqabop yaxshilar bilan almashlab ekishga ko'proq e'tibor berilmayapti. Sabzavotchilikka ixtisoslashgan Tayloq, Samarqand, Jomboy tumanlarida yerdan foydalanish jarayonida mineral o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish natijasida yerlar sho'rланib yaroqsiz bo'lib

qolmoqda. Viloyatning ko'pgina tumanlarida jumladan, Nurobod, Kattaqo'rg'on, Narpay, Paxtachi, Pastdorg'om tumanlari xo'jaliklari paxta dalalarida yerdan noto'g'ri foydalanish natijasida qishloq xo'jalik ekinlarini maydoni jarliklar hosil bo'lish evaziga qisqarib bormoqda. Lalmikor dehqonchilik rivojlangan yerlarni noto'g'ri agrotexnika qilish natijasida qishloq xo'jalik yerlari sifati yomonlashib bormoqda. Viloyatning chorvachilikda ixtisoslashgan ikki yirik Nurobod va Qo'shrabod tumanlari, hamda boshqa tumanlarning chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarida yaylovlarda belgilangan me'yordan ortiq mol va qo'y-echkilar boqilishi natijasida yaylov hosildorligini pasaytirib oziqabop ekinlarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu ko'proq aholi xo'jalik mollarini tartibsiz boqilishi natijasida vujudga kelmoqda. Xulosa o'rinda shuni aytish joizki mavjud resurslardan to'g'ri, oqilona foydalanish qishloq xo'jaligini ya'nada rivojlanishda, aholi turmush tarzini yaxshilashida, qishloq xo'jaligida mavjud muammolarni hal bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

Samarqand vohasi qadimdan sug'orib kelinadigan yer resurslariga boy viloyatdir. Zarafshon daryosi va uning atrofidagi sug'orish shaxobchalarining mavjudligi bu hududda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uning zamirida turli xildagi oziq ovqat maxsulotlarini etishtirish imkonini berish bilan birga katta ishlash sanoat tarmoqlari uchun muhim xom ashyoni etkazib berishga xizmat qiladi. Albatta hozirda suv ta'minoti yaxshi bo'lsa, usha yerda obikor dehqonchilik yaxshi rivojlangandir. Aynan Samarqandning Zarafshon daryosi gidrografik turida joylashganligi sababli bu yerda sug'oriladigan yer maydonlari ko'pdir. Bundan tashqari viloyatning katta qismini lalmikor yerlar ham tashkil qiladi. Bu yerlar viloyatning qariyb barcha tumanlarida mavjud bo'lib, aynida suv etishmaydigan joylarda ko'p tarqalgan. Bulardan tashqari yaylov, tomorqa, o'rmonzorlar, daraxtlar va boshqa yer maydonlari keng tarqalgandir. Viloyatda mavjud yer resurslari yildan-yilga o'zgarib bormoqda. Buning bir qancha sabablari mavjuddir ya'ni ayrim tumanlarda foydalaniladigan yer maydonlari oshib borayotgan bo'lsa ayrimlarida esa buning aksini ko'rishimiz mumkin.

Viloyat yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasining 2015 yil 1- yanvar ma'lumotlari bo'yicha viloyatimizning jami yer fondi 1677,3 ming gektarni tashkil qilgan hamda shundan 253, 7 ming gektari sug'oriladigan yerlardan iborat. O'z navbatida yerdan foydalanish xususiyatlariga ko'ra davlat yagona yer fondi 8 ta yirik toifalarga ajratiladi. Bular qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar; Aholi punktlari yerlari, sanoat, transport, aloqa mudofaa va boshqalarga mo'ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, o'rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari, hamda zahira yerlaridan iborat. Viloyat yer fondi toifalari o'z hajmi bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan. Jami yer fondining 77,2 foizi yoki 1294,9 ming gektari birgina qishloq xo'jaligida mo'ljallangan yerlardan iborat. Bundan ko'rinadiki, viloyatimiz yer maydonining $\frac{3}{4}$ qismidan ko'prog'i qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish uchun jalb qilingan yerlardan tashkil topgan. Qolgan 22,8 % yerlar zahira yerlari, o'rmon sanoat, transport, aloqa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar egallaydi. Bundan tashqari aholi punktlari tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya, madaniy-tarixiy ahamiyatga molik yerlar hisoblanadi.

Viloyat yer fondi tarkibida qishloq xo'jaligida mo'ljallangan yerlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy iqtisodiyotning o'zak sohasi hisoblangan qishloq xo'jaligi va uning dehqonchiligi hamda chorvachiligi tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi, rivojlanishi, eng avvalo, bu makroiqtisodiy tarmoqqa ajratilgan yerlarning hajmi va xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Qishloq xo'jalik yerlari o'z ichiga jami ekin yerlarini, ko'p yillik daraxtzorlarni, bo'z yerlarni hamda pichanzor va yaylovzorlarni qamrab oladi. Ular turlicha tarixiy o'zgarishlarga egadir. Jumladan qishloq xo'jalik yerlari tarkibidagi ekin ekiladigan yerlar maydoni 2000 yilda 445,8 ming gektarni tashkil qilib bu ko'rsatkich 2009 yilda 435,6 ming gektar, 2014 yilda 435,7 ming dan iborat bo'lgan yoki 2014 yilda 2000 yilga nisbatan ekin yerlari 10,2 ming gektar kamaygan. Ekin yerlari tarkibida holati yomon yerlar ham mavjud bo'lib, jami 16187 gektarni yoki 0,4 % ni tashkil qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki ekin

ekiladigan sof yerlar maydoni 419,4 gektarni tashkil qiladi. Viloyatda ekin yerlari ko'rilayotgan yillar mobaynida yildan-yilga kamayib bormoqda. Uning bir qancha sabablari mavjuddir. Jumladan, ekin ekiladigan yerlarda agrotexnika, sug'orish ishlarining noto'g'ri olib borilishi sababli yer osti suvlarining yer yuzasiga yaqin kelishi, ikkilamchi sho'rlanishni olib kelmoqda. Ayrim tumanlarda suvdan noto'g'ri foydalanish evaziga jarliklarni vujudga kelishi, cho'llanish ya'ni qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari viloyat aholisining yil sayin oshib borishi, qishloq joylarida ekin yerlaridan aholiga tomorqa yerlarining ajratilishi, yo'llarni o'tkazilishi, sanoat korxonalarini, maishiy xizmat ko'rsatish obektlari, do'konlar, ayrim tashkilotlarga inshootlarni qurilishi ham viloyatda ekin yerlarining kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Viloyatda jami ekin ekiladigan erlarni 253,7 ming gektari sug'oriladigan yerlardan iborat. Viloyatda 2015 yil 1-yanvar holatiga ko'ra ko'p yillik daraxtzorlar maydoni 60,7 ming ga shundan sug'oriladigan yerlar 57,1 ming ga yoki q/x yerlarining 0,5 foizini tashkil qildi. Ko'p yillik daraxtzorlar taqsimida bog'lar 21,8 ming ga, uzumzorlar 29,8 ming ga, tutzorlar 8,2 ming ga va mevali ko'katlar va boshqa ko'p yillik daraxtzorlar 0,3 ming ga ni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi yerlar tarkibida bo'z erlar 5,4 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 793,8 ming gektarni tashkil qiladi. Albatta viloyatda yaylovlar ham katta maydonni egallaydi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 61,3 foizini aynan yaylovzorlar tashkil qilmoqda. Yaylov yerlaridan nafaqat chorvachilikda foydalanilmoqda balkim dehqonchilikda lalmi ekinlar bug'doy, arpa, noxut va boshqa ekinlar yetishtirishda ham uning bir qismidan foydalanilib kelinmoqda. Jami yaylov yerlarning 505,6 ming gektari suv bilan ta'minlangan yerlar hisoblanadi. Shuning uchun ham bog' va tokzorlar ham yaylov yerlarida ekilgan umuman viloyatning qishloq xo'jaligida foydalaniladigan jami yerlarining 310,3 ming ga yoki 24 % i sug'oriladigan yerlardan iboratdir.

Viloyat umumiy yer fondida tomorqa yerlari ham mavjud bo'lib bu yerda imorat yerlari, ekin yerlari va bog' va boshqa mevali daraxtlar yerlarini o'z ichiga

oladi. Viloyatda tomorqa yerlarining umumiy maydoni 86,1 ming gektarni tashkil qildi. Shundan, 55,1 ming ga ekin yerlari, 14,9 ming ga bog' va boshqa mevali daraxt yerlari va 15,2 ming gektari imorat bilan band bo'lgan yerlardan iboratdir. Viloyatda jami 9285 oila bog' va sabzavotchilik uyushmalari tarkibida bo'lib ularga ajratilgan yerlar 714 gektarni tashkil qiladi. Yer fondining 3,5 ming gektarga yaqin yerlari meliorativ qurilish holatidagi yerlarni tashkil qiladi

Viloyatda jami o'rmonzorlar maydoni 13, 1 ming gektar bo'lib shundan ixota daraxtzorlar maydoni 6903 gektarni va terakzorlar 4771 gektarni tashkil qiladi. Butazorlarning umumiy maydoni 27 gektar. Viloyat yer fondida jami qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar maydoni 277,6 ming gektarni yoki 16,5 foizni tashkil qiladi. Umuman yuqorilardan ma'lum bo'ldiki viloyatda yer turlarining hajmi sifat darajasi, taqsimlanish turlicha bo'lib yer fondida yerlardan foydalanish yil sayin o'zgarib bormoqda. Bugungi kunga kelib umumiy yer fondida qishloq xo'jaligi yerlari nisbatan kamayib, aholi tamorqa yerlari oshib bormoqda. Shu bilan birga yaylovtzorlar hamda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar maydoni yaxshigina oshib borayotir. Bu esa, o'z navbatida, mavjud yer fondidan oqilona foydalanishni va bu borada yagona davlat siyosatini amalga oshirishni taqazo qiladi. Bunda, eng avvalo yer munosabatlarini tartibga solish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish tabiiy geografik, tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy, texnik-texnologik jihatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

2.2. Viloyat tumanlarida yer resurslarining holati

Samarqand viloyatida yer fondi tumanlar bo'yicha turlicha taqsimlangan. Viloyat tumanlarida yer fondi hajmining kattaligiga ko'ra 3-guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu orqali qaysi tuman qanday yer fondiga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu guruhlar quyidagicha nomlanadi, ya'ni eng katta yer fondiga ega bo'lganini yetakchi, keyingi o'rindagilari oraliq va so'ngi o'rindagi esa quyi o'rirlarga ajratish ijobiy holatni ko'rsatib boradi. Viloyatda yer fondi

hajmining kattaligiga ko'ra, 2015 yil 1-yanvar holati bo'yicha Nurobod (486,2 ming gektar) va Qo'shrobdod (216,1 ming gektar) tumanlari etakchi; Kattaqo'rg'on (139,2 ming ga), Paxtachi (137,6 ming ga), Payariq (128,7 ming ga), Urgut (112,0 ming ga), Pastdarg'om (86,7 ming ga), Bulung'ur (75,2 ming ga), va Ishtihon (71,8 ming ga), tumanlari oraliq o'rnida; Jomboy (56,0 ming ga), Samarqand (48,2 ming ga), Narpay (44,2 ming ga), Oqdaryo (37,5 ming ga), Tayloq (27,8 ming ga), tumanlari quyi o'rinlarni egallaydi. Bu tahlil natijalariga ko'ra etakchi o'rinlarda turgan Nurobod va Qo'shrobdod tumanlarining aksariyat yer maydonlari tekisliklardan, qishloq xo'jaligiga foydalanishga ko'ra esa lalmi va yaylovzorlar katta maydonlarni egallaydi. Aksincha quyi o'rinni egallagan Samarqand, Jomboy, Narpay, Oqdaryo va Tayloq tumanlari asosan Zarafshon daryosi gidrografik tarzda joylashgan bo'lib, boshqa tumanlar bilan chegaralari qisqa, shu bilan birga tumanlarning yerlari asosan sug'orib dehqonchilik qilishga ixtisoslashganligidir yerlari qishloq xo'jalik yerlari tarkibida asosiy o'rinni egallaydi. Ekin ekiladigan yerlar tumanlarda ham sug'oriladigan ham lalmi yerlarda ekiladi. Tumanlarda ekin ekiladigan yerlar hajmiga ko'ra Nurobod (66,0 ming ga), Payariq (55,6 ming ga), Pastdarg'om (46,4 ming ga), Kattaqo'rg'on (44,4 ming ga), tumanlari hamda Qo'shrobdod(39,8 ming ga) ajralib turadi. Aksincha Samarqand (9,4 ming ga) va Tayloq (8,4 ming ga), tumanlarining salohiyati esa past daromadidir.

Tumanlarda sug'oriladigan yerlarda ekin erlarining tahlili shuni ko'rsatadiki bunda Pastdarg'om tumanida jami ekin yerlarining 92 foizi yoki 42,6 ming gektari sug'oriladigan yerlardan iborat, keyingi o'rinlarda Payariq (31,2 ming ga), Narpay va Kattaqo'rg'on tumanlarida 20,5 va 25,7 ming gektar yerlari sug'oriladigan ekin yerlardan iborat. Ayrim tumanlarning ekin ekiladigan yerlari uncha katta bo'lmasada asosiy dehqonchilik mahsulotlarini etishtirib bermadi. Bunday tumanlar yerlari asosan sug'orib ekiladigan yerlardan iborat. Masalan Oqdaryo tumanining ekin ekiladigan yerlari maydoni viloyat ekin yerlariga atigi 4,5 foizini tashkil qiladi. Bu tumanda jami 20908 gektar ekin ekiladigan yerlari mavjud bo'lib, shuning 99,4 foizi, 20777 ga sug'orib ekiladigan yerlardan

iboratdir. Bundan tashqari Jomboy tumaniga 88 foizi, Paxtachi 89 foizi, Narpay 94 foiz, Tayloq 99,2 foizi, Samarqand 86 foiz tumanlarida sug'oriladigan ekin yerlarining ahamiyati kattadir. Lalmi yerlar maydonlarining ham ahamiyati kattadir. Aynan bu yerlarda nafaqat dehqonchilikda keyin chorvachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Viloyatning jami ekin ekiladigan yerlarining 41,6 foizi aynan lalmi yerlardan iboratdir. Qolgan 56,3 foizi sug'oriladigan va 4,1 foizi esa holati yomon yerlardan iborat. Lalmi yerlar tahlili tumanlar bo'yicha o'rganishda shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu erda aynan ekin ekiladigan yer maydoni ko'p bo'lgan tumanlarda yaqqol kuzatildi. Jumladan Nurobod tumanida jami ekin ekiladigan yerlarning 91 foizi lalmi yerlardan iborat. Lalmi yerlarning maydoni 59853 gektarni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Qushrobod tumanida 95,2 foizni, Kattaqo'rg'onida 42,2 foiz, Bulung'urda 46,3 foiz, Ishtixonda 40 foizni, Payariqda 44 foizni tashkil qiladi. Aksincha lalmi erlar Oqdaryoda 0,6 foiz, Narpayda 6,0 foiz, Tayloqda 0,7 foizga teng va eng kam ko'rsatkichga ega tumanlardan hisoblanishadi.

Ekin ekiladigan yerlar tarkibida holati yomon yerlar ham mavjud. Bunday yerlar viloyat jami ekin yerlarining 3,7 foizini yoki 16187 gektarni tashkil qiladi. Bunday yer maydonlari tumanlar miqyosida o'rganish ta'limi shuni ko'rsatdiki holati yomon yerlar maydoni bo'yicha Payariq tumanida 3487 gektarni yoki ekin yerlarini 6,3 foizini tashkil qiladi. Oqdaryo tumanida bu ko'rsatkich 5,3 foizga yoki 1045 gektarga teng. Xuddi shunday Ishtixon, Qo'shrobod, Nurobod, Kattaqo'rg'on va Paxtachi tumanlarida ham holati yomon yerlar maydoni oshib bormoqda. Ayniqsa Sug'orib dehqonchilik qilayotgan Oqdaryo, Paxtachi, Pastdarg'om tumanlarida bunday yer maydonlarining ko'payib borishi kelajakda shu yerlardan qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlari pasayib boradi va cho'lga aylanib qolish imkoniyatlari oshadi. Shunday ekan bu tumanlarda yerdan to'g'ri foydalanish, agrotexnika va sug'orish ishlariga e'tibor qaratish kanal va zovurlar qazib suvni qochirish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'p yillik daraxtzorlar maydoni viloyat bo'yicha 60672 gektarni tashkil qiladi. Ko'p yillik daraxtzorlar tajribaga bog'lar, uzumzorlar, tutzorlar va mevali

ko'chatzor va boshqa ko'p yillik daraxtzorlar kiradi. Viloyat tumanlari miqyosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda Bulung'ur tumanida 10198 gektar yoki jami ko'p yillik daraxtzorlar maydonining 16,8 foiz shu tumanga to'g'ri keladi.

Viloyatning qishloq xo'jalik yerlarining katta qismi ya'ni 61,4 foizini pichanzor va yaylovtzorlar bilan band, ma'lumki ular chorvachilikni rivojlantirishning muhim asosi bo'lib xizmat qiladi. Pichanzor va yaylovtzorlar bilan band erlarning umumiy maydoni 794,1 ming gektarni tashkil qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek ularning 63,4 foizi Nurobod va Qo'shrobd tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Pichanzor va yaylovlar joylashgan yerlarning hajmiga ko'ra Nurobod (352573 gektar) va Qo'shrobd (150557 gektar) tumanlarining salohiyati katta, shu bilan birga, Oqdaryo, Tayloq, Narpay tumanlarining mavqei past. Bu borada Paxtachi, Kattaqo'rg'on, Urgut va Payariq tumanlari ham katta imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda nafaqat viloyatimizda, balkim Respublikamizda ham o'rmonzorlar bilan ta'minlanish darajasi uncha yuqori emas. Albatta buning bir qancha sabablari mavjud. Shunday bo'lsada hozirda o'rmonzorlar maydonlarining ko'paytirishga ixota daraxtzorlari va terakzorlar maydonlarini ko'paytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari uzumzorlar maydoniga ko'ra esa Urgut (6336ga), Bulung'ur (5427 ga), Ishtixon (4392 ga), Samarqand (3377 ga), Tayloq (3141 ga) va Payariq (2520 ga) tumanlari yetakchi o'rinni egallaydi. Uzumzorlar maydoni kam tumanlari Nurobod (122 ga), Jomboy (201 ga) va Paxtachi (219 ga) tumanlari past ko'rsatkichga egadir. Bo'z yerlar maydoni viloyat bo'yicha 5443 gektarni tashkil qiladi. Ularning katta qismi Kattaqo'rg'onida jami bo'z yerlarning 53 fozi yoki 2887 gektari shu tumanga to'g'ri keladi. Bundan tashqari Payariq, Oqdaryo tumanlarida ham bo'z yerlarning katta qismi joylashgandir. Aksincha Nurobod, Samarqand, Tayloq tumanlarida bo'z yerlarning o'zi yo'qdir.

Samarqand viloyati tumanlarida ekin ekiladigan yerlar maydoni, ming gektar(2007-2014 yillar)

| № | Tumanlar nomi | 2007 | | 2008 | | 2009 | | 2010 | | 2011 | | 2012 | | 2013 | | 2014 | |
|---|---------------|------|------------------------|------|------------------------|------|------------------------|------|------------------------|------|------------------------|------|------------------------|------|------------------------|------|------------------------|
| | | Jami | SHundan sug'oriladigan | Jami | SHundan sug'oriladigan | Jami | SHundan sug'oriladigan | Jami | SHundan sug'oriladigan | Jami | SHundan sug'oriladigan | Jami | SHundan sug'oriladigan | Jami | SHundan sug'oriladigan | Jami | SHundan sug'oriladigan |
| 1 | Bulung'ur | 29,6 | 16,4 | 29,4 | 16,5 | 28,1 | 15,3 | 28,1 | 15,2 | 28,1 | 15,2 | 27,4 | 14,7 | 27,3 | 14,7 | 27,2 | 14,5 |
| 2 | Jomboy | 25,5 | 22,4 | 25,3 | 22,2 | 25,1 | 22,1 | 25,0 | 21,9 | 24,9 | 21,8 | 24,9 | 21,8 | 24,9 | 21,8 | 24,7 | 21,7 |
| 3 | Ishtihon | 32,8 | 20,1 | 32,8 | 20,1 | 32,3 | 19,7 | 32,2 | 19,6 | 32,1 | 19,5 | 31,8 | 19,1 | 31,6 | 19,0 | 31,7 | 19,0 |
| 4 | Kattaqurg'on | 48,7 | 26,6 | 44,8 | 26,1 | 44,8 | 26,1 | 44,5 | 25,8 | 44,5 | 25,8 | 44,5 | 25,7 | 44,5 | 25,6 | 44,4 | 25,6 |
| 5 | Narpay | 22,0 | 20,6 | 21,9 | 20,6 | 21,9 | 20,6 | 21,8 | 20,5 | 22,1 | 20,7 | 22,0 | 20,7 | 22,0 | 20,7 | 21,7 | 70,5 |
| 6 | Nurobod | 62,0 | 5,5 | 66,4 | 6,6 | 65,9 | 6,1 | 65,9 | 6,0 | 65,9 | 6,1 | 65,9 | 6,1 | 65,9 | 6,1 | 65,9 | 6,1 |
| 7 | Oqdaryo | 19,8 | 19,7 | 19,9 | 19,8 | 19,9 | 19,8 | 19,9 | 19,7 | 19,9 | 19,7 | 19,8 | 19,7 | 19,8 | 19,7 | 19,7 | 19,5 |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|----|------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| 8 | Pastdarg'om | 46,8 | 42,8 | 46,0 | 42,1 | 46,6 | 42,6 | 46,5 | 42,5 | 46,4 | 42,6 | 46,5 | 42,6 | 46,4 | 42,6 | 46,4 | 42,6 |
| 9 | Paxtachi | 20,5 | 18,3 | 20,5 | 18,2 | 19,9 | 17,8 | 19,8 | 17,6 | 19,8 | 17,5 | 19,9 | 17,6 | 19,9 | 17,6 | 19,9 | 17,6 |
| 10 | Payariq | 55,7 | 31,3 | 55,7 | 31,2 | 55,6 | 31,3 | 55,8 | 31,3 | 55,7 | 31,2 | 55,6 | 31,1 | 55,4 | 31,0 | 55,6 | 31,1 |
| 11 | Samarqand | 10,3 | 9,0 | 10,3 | 9,0 | 10,2 | 8,9 | 10,2 | 8,9 | 10,1 | 8,8 | 10,1 | 8,8 | 10,1 | 8,8 | 9,4 | 8,1 |
| 12 | Tayloq | 9,1 | 9,0 | 9,0 | 8,9 | 9,0 | 8,9 | 8,9 | 8,9 | 8,7 | 8,6 | 8,5 | 8,5 | 8,5 | 8,5 | 8,4 | 8,3 |
| 13 | Urgut | 22,5 | 18,1 | 22,5 | 18,1 | 22,1 | 17,9 | 21,9 | 17,6 | 21,6 | 17,3 | 21,0 | 16,8 | 19,9 | 16,7 | 20,4 | 16,4 |
| 14 | Qushrobot | 39,4 | 1,4 | 39,3 | 1,4 | 39,9 | 1,9 | 39,9 | 1,9 | 39,9 | 1,9 | 39,9 | 1,9 | 39,9 | 1,9 | 39,8 | 1,9 |
| | Viloyat buyicha | 444,6 | 261,2 | 444,1 | 261,1 | 441,9 | 258,9 | 440,8 | 257,9 | 439,8 | 257,0 | 438,1 | 255,4 | 437,0 | 256,2 | 435,6 | 253,7 |

**Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti asosida tuzilgan*

Undan keyinda Urgut 13 foiz, Samarqand 10,4 foiz, Ishtixon 9,8 foiz, va Tayloq 8,1 foiz tumanlari ajralib turadi. Qushrabod, Paxtachi, Narpay tumanlari esa past ko'rsatkichlarga ega. Ko'p yillik daraxtzorlar tarkibida bog'lar maydoniga ko'ra Bulung'ur (3880 ga), Nurobod (3318 ga), Samarqand (2771 ga) va Pastdarg'om (1890 ga) tumanlari ajralib turadi.

6-jadval

Samarqand viloyati tumanlarida ko'p yillik daraxtzorlar maydoni, gektar (2007-2014 y)

| № | Tumanlar nomi | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2014yil 2007 yilga nisbatan |
|----|----------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|-------------|--------------------------------------|
| 1 | Bulung'ur | 8156 | 8512 | 9677 | 9704 | 9704 | 10022 | 10110 | 10198 | 125.0 |
| 2 | Jomboy | 2280 | 2378 | 2408 | 2448 | 2512 | 2582 | 2596 | 2563 | 116.3 |
| 3 | Ishtihon | 4958 | 4977 | 5137 | 5184 | 5247 | 5864 | 5898 | 5973 | 119.6 |
| 4 | Kattaqurg'on | 2968 | 2966 | 2965 | 2860 | 2884 | 2932 | 2932 | 3932 | 98.8 |
| 5 | Narpay | 2128 | 2127 | 2173 | 2116 | 1835 | 1885 | 2016 | 2242 | 105.3 |
| 6 | Nurobod | 3711 | 3855 | 3525 | 3525 | 3525 | 3525 | 3426 | 3525 | 95.0 |
| 7 | Oqdaryo | 2578 | 2448 | 2463 | 2473 | 2539 | 2539 | 2640 | 2640 | 106.2 |
| 8 | Pastdarg'om | 3651 | 3653 | 3840 | 3845 | 3863 | 4119 | 4186 | 4232 | 115.4 |
| 9 | Paxtachi | 1622 | 1568 | 1578 | 1598 | 1645 | 1722 | 1722 | 1760 | 106.1 |
| 10 | Payariq | 3998 | 3998 | 4033 | 4033 | 4083 | 4133 | 4134 | 4135 | 103.4 |
| 11 | Samarqand | 5458 | 5422 | 5498 | 5529 | 5526 | 5526 | 6001 | 6047 | 115.2 |
| 12 | Tayloq | 4686 | 4761 | 4621 | 4610 | 4655 | 4799 | 4840 | 4821 | 104.9 |
| 13 | Urgut | 5177 | 5123 | 5410 | 5599 | 5855 | 6347 | 6940 | 7854 | 151.7 |
| 14 | Qushrobot | 1773 | 1773 | 1205 | 11205 | 1205 | 1205 | 1205 | 1205 | 68.1 |
| | Viloyat buyicha | 53253 | 53670 | 54592 | 54838 | 55187 | 57309 | 59216 | 6072 | 113.9 |

Bundan tashqari uzumzorlar maydoniga ko'ra esa Urgut (6336ga), Bulung'ur (5427 ga), Ishtixon (4392 ga), Samarqand (3377 ga), Tayloq (3141 ga) va Payariq (2520 ga) tumanlari yetakchi o'rinni egallaydi. Uzumzorlar maydoni kam tumanlari Nurobod (122 ga), Jomboy (201 ga) va Paxtachi (219 ga) tumanlari past ko'rsatkichga egadir. Bo'z yerlar maydoni viloyat bo'yicha 5443 gektarni tashkil qiladi. Ularning katta qismi Kattaqo'rg'onida jami bo'z yerlarning 53 foizi yoki 2887 gektari shu tumanga to'g'ri keladi. Bundan tashqari Payariq, Oqdaryo tumanlarida ham bo'z yerlarning katta qismi joylashgandir. Aksincha Nurobod, Samarqand, Tayloq tumanlarida bo'z yerlarning o'zi yo'qdir.

Viloyatning qishloq xo'jalik yerlarining katta qismi ya'ni 61,4 foizini pichanzor va yaylovzorlar bilan band, ma'lumki ular chorvachilikni rivojlantirishning muhim asosi bo'lib xizmat qiladi. Pichanzor va yaylovzorlar bilan band erlarning umumiy maydoni 794,1 ming gektarni tashkil qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek ularning 63,4 foizi Nurobod va Qo'shrobd tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Pichanzor va yaylovlar joylashgan yerlarning hajmiga ko'ra Nurobod (352573 gektar) va Qo'shrobd (150557 gektar) tumanlarining salohiyati katta, shu bilan birga, Oqdaryo, Tayloq, Narpay tumanlarining mavqei past. Bu borada Paxtachi, Kattaqo'rg'on, Urgut va Payariq tumanlari ham katta imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda nafaqat viloyatimizda, balkim Respublikamizda ham o'rmonzorlar bilan ta'minlanish darajasi uncha yuqori emas. Albatta buning bir qancha sabablari mavjud. Shunday bo'lsada hozirda o'rmonzorlar maydonlarining ko'paytirishga ixota daraxtzorlari va terakzorlar maydonlarini ko'paytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Viloyatda jami o'rmonzorlar maydoni 13100 gektarni tashkil qilmoqda va shundan 6001 gektari sug'oriladigan yerlarda ekilgan. O'rmonzorlar maydoniga ko'ra Nurobod (2127 gektar), Urgut (2033 gektar), Jomboy (1733 gektar), Bulung'ur (1643 gektar) va Oqdaryo (1309 gektar) tumanlarining salohiyati katta bo'lib jami o'rmonzorlarning 67,5 foizi shu tumanlar xissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrobd, Payariq, Tayloq va Narpay tumanlarining mavqei past darajada. Viloyat tumanlari yer fondi tarkibida tamorqa yerlari bog'dor va

sabzavotchilik uyushmalari yerlari va boshqa yerlar ham mavjud bo'lib ularning o'zgarishlari qolgan yerlardan foydalanishga qarab o'zgarib turadi. Ayniqsa tamorqa yerlari viloyatda aholi sonining yil sayin oshib borishi bilan unga bo'lgan ixtiyojidan kelib chiqqan hamda o'zgarib boradi. Masalan 2006yilda viloyatda jami tamorqa yerlari 83,1 ming gektar bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013 yilga kelib 86,1 ming gektar ya'ni 3000 ming gektarga ko'paygandir.

2.3. Viloyat tumanlarining xo'jalik ixtisoslashuvida yerdan foydalanish.

Mamlakatimizda, shu jumladan viloyatda ham qishloq xo'jaligida bozor munosabatlari shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o'tish, mumkin davlat ta'sarrufidan chiqarish va xususiyatlashtirish dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini yo'lga quyish kabi masalalarni hal etishga katta e'tibor qaratildi. Samarqand viloyati tumanlari xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligi, ularning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida katta o'rin tutdi. Aynan viloyatda mavjud qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer resurslari xo'jalik sub'ektlariga bo'linib berilgan bo'lib, ular asosiy ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishda xo'jalik sub'ektlarining o'rni kattadir .

Viloyatta qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer resurslari fermer, dehqon va davlat ta'sarrufidagi qishloq xo'jaligi korxonalarini tarkibiga bo'lingandir. Viloyat qishloq xo'jaligida etishtirilayotgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda aynan yuqorida ta'kidlab o'tilgan xo'jaliklar o'rni oshirilib turadi. Shunday ekan ushbu xo'jaliklarning Viloyat yer resurslaridan ta'minlanish darajasini o'rganib, uni tumanlar miqyosida tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir. Hozirda viloyatda jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklari yetakchi o'rinni egallaydi. Buni viloyat bo'yicha yangi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xo'jaligi toifalari bo'yicha tahlil qilish orqali ko'rish mumkin. Masalan: 2015 yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatda yangi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishda dehqon

xo'jaliklarining ulushi 63,1 foizni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich fermer xo'jaliklarida 35,1 foizni, qishloq xo'jaligi korxonalarida 1,8 foizni tashkil qilgan. Berilgan jadval tahlili shundan iboratki Samarqand viloyatida biriktirilgan yer maydoni 2012 yilda 86059 gektarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014 yilda 16089 gektar bo'lgan yil ko'rsatilgan yillarda farq bor yo'g'i 30 gektarni tashkil qilgan. Biriktirilgan yer maydoni faqatgina ikkita tumanda o'zgargan. Masalan Qo'shrobd tumanida 2012 yilda yer maydoni 4737 gektar bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014 yil da 4798 gektarni yoki 2010 yilda 63 gektarga oshgan. Huddi shunday Narpay tumanida 2012 yilda 5469 gektar yer maydoni bo'lgan holda, bu ko'rsatkich 2014 yilda 5438 gektarni yoki 2009 yilga nisbatan 31 gektarga kamaygan. Mana shu ikki tumandagi farqlar hisobidan viloyat dehqon xo'jaliklariga biriktirilgan yer resurslarida hamon o'zgarish bo'lgan. Dehqon xo'jaliklarining ya'ni qishloq mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi yil sayin kamayib borgan, 2012 yilda 67,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa 2014 yilda bu ko'rsatkich 63,1 foizga kamaygan. Albatta bu yerda asta sekinlik bilan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklarining ulushi oshib borishi, ayrim dehqon xo'jaliklari fermerlar tarkibiga qo'shilish hisobidan ana shu holat vujudga kelgan. Lekin qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklari yetakchi hisoblandi. Shunday ekan dehqon xo'jaliklarida yer resurslaridan foydalanishga e'tibor katta. Chunki hajmi kam yerda oilaviy pudratlarning mehnat faoliyati yerga e'tibor darajasi yuqori hisoblanadi. Chunki u olishgan daromadi orqali o'z oilasini boqishi kerak. Shuning uchun dehqon xo'jaliklari ham chorvachilik ham dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda katta o'ringa egadir.

Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda dehqon xo'jaliklarining o'rni alohida ahamiyatga egadir. Dehqon xo'jaliklari bugungi kunda ham dehqonchilik, ham chorvachilik mahsulotlari etishtirishda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu esa bozorlarda narx navolarning ko'tarilishini oldini olish bilan birga, aholini kunlik qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan uzliksiz ta'minlashga xizmat qilmoqda. Dehqon xo'jaliklari yer maydonlari

ularning joylashuvidan kelib chiqqan holda taqsimlangandir. Dehqon xo'jaliklari yer maydonlari yer to'g'risidagi qonunga muvofiq eng kamida 0,06 gani tashkil qiladi. Samarqand viloyatda 2016 yilda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan dehqon xo'jaliklarining ulishi 57,4 % ni tashkil qilmoqda. Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti bo'yicha 2017 yil 1 yanvar holatida viloyatda jami 511151 ta dehqon xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularga ajratilgan yer maydonlari 96472 ming gektarni tashkil qilmoqda. O'rta hisobda har bir dehqon xo'jaliga 0,19 ga yer maydoni to'g'ri kelmoqda. Dehqon xo'jaliklaridagi mavjud yer maydonlarining 59,8 %i yoki 57,7 ming gektari ekin ekiladigan yerlarni tashkil qiladi. Dehqon xo'jaliklaridagi mavjud ekin ekiladigan 57,7 ming ga yer maydonlarining 45,2 % yoki 26,1 ming ga g'alla, 17,0 % yoki 9,8 ming ga kartoshka, 21,1 % yoki 12,2 ming ga cabzavotlar, 12,8 % yoki 7,4 ming ga meva va qolgan 3,9 % yoki 2,3 ming gekteriga boshqa qishloq xo'jalik ekinlari etishtirilmoqda. Viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda dehqon xo'jaliklarining hissasi kattadir. 2016 yilda dehqon xo'jaliklari tamonidan 172,7 ming tonna ga'lla, shundan 151,9 ming tonna bo'g'doy, har gektar yerdan 66,4 tsentnerni tashkil qilgan. Bu kursatkich fermer xo'jaliklarida 44,6 ts/gani tashkil qilgan. Kartoshka 433,4 ming tonna yoki gektaridan 442,2 ts, Sabzavotlar 742,1 ming tonna yoki gektaridan 608,3 st, meva 184,6 ming tonna yoki gekraridan 249,5 stentnerni tashkil qilgan. Bugungi kunda dehqon xo'jaliklari yer maydonlarida qishloq xo'jaligi ekinlari etishtirishga va undan yuqori daromad olishga jiddiy etibor berilmoqda. Shunday bo'lsada ayrim dehqon xo'jaliklari yerdan to'liq va samarali foydalanilmay kelmoqda. Bu jarayonlarni yer resurslari bilan yaxshi ta'minlangan Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on, Qushrobot, Nurobot, Narpay, Payariq, Urgut tumalarida ko'zatish mumkin. Bu tumanlardagi ayrim dehqon xo'jaliklari yerdan ochiq maydon sifatida, yoki chorva mollarini boqish uchun foydalanishmoqda. Ayrim dehqon xo'jaliklari yerga bir ekin turini bir marta ekish bilan cheklanib qolmoqda. Ayniqsa makkajo'xori ekish bilan cheklanib qolmoqdaki, bu uz navbatida yerning masuldorlik darajasiga ta'sir etish barobarida, undan past darajada foydalanishga olib kelmoqda.

Samarqand viloyati dehqon xo'jaliklari to'g'risidagi ma'lumot

| № | Tumanlar nomi | Dehqon xo'jaliklar soni, birlik | | | Ulardan yuridik shaxs maqomini olganlar, birlik | | | Biriktirilgan yer maydoni, (gektar) | | | Yalpi qishloq xo'jalik maxsulotlarida dehqon xo'jaliklarining ulushi, foizda | | |
|----|---------------|---------------------------------|-------|--------|---|--------|--------|-------------------------------------|--------|----------|--|--------|--------|
| | | 2012y | 2013y | 2014 y | 2012 y | 2013 y | 2014 y | 2012 y | 2013 y | 2014 y | 2012 y | 2013 y | 2014 y |
| 1 | Oqdaryo | 21722 | 21722 | 21722 | 6 | 3 | 5 | 4528 | 4528 | 4528 | 62,3 | 65,1 | 62,1 |
| 2 | Bulung'ur | 25861 | 25861 | 25861 | 5 | 6 | 6 | 5496 | 5496 | 5496 | 47,8 | 50,3 | 47,6 |
| 3 | Jomboy | 25058 | 25058 | 25058 | 103 | 105 | 71 | 6163 | 6163 | 6163 | 55,5 | 59,2 | 58,7 |
| 4 | Ishtihon | 35240 | 35240 | 35240 | 109 | 114 | 125 | 7757 | 7757 | 7757 | 74,7 | 74,2 | 71,0 |
| 5 | Kattaqurg'on | 45321 | 45321 | 45321 | 2 | 2 | 2 | 8104 | 8104 | 8104 | 76,3 | 72,3 | 68,0 |
| 6 | Qushrobod | 14466 | 14466 | 14466 | 11 | 10 | 8 | 4337 | 4798 | 4798 | 93,4 | 88,5 | 81,0 |
| 7 | Payariq | 34865 | 34865 | 34865 | 66 | 67 | 68 | 6475 | 6475 | 6475 | 67,1 | 63,2 | 61,5 |
| 8 | Pastdarg'om | 50945 | 50945 | 50945 | 7 | 5 | 3 | 8147 | 8147 | 814758,5 | 59,7 | 57,6 | |
| 9 | Paxtachi | 28351 | 28351 | 28351 | 1 | 1 | 1 | 5068 | 5068 | 5068 | 68,5 | 65,7 | 64,1 |
| 10 | Samarqand | 41812 | 41812 | 41812 | 10 | 1 | 9 | 3647 | 3647 | 3647 | 49,8 | 52,4 | 51,6 |
| 11 | Narpay | 32929 | 32929 | 32879 | 26 | 26 | 19 | 5469 | 5443 | 5438 | 71,9 | 54,4 | 53,8 |

| | | | | | | | | | | | | | |
|----|---------------------|---------------|---------------|---------------|------------|------------|------------|--------------|--------------|--------------|-------------|-------------|-------------|
| 12 | Nurobod | 17058 | 17058 | 17058 | 34 | 35 | 36 | 6607 | 6607 | 6607 | 47,5 | 68,1 | 64,8 |
| 13 | Tayloq | 30743 | 30743 | 30743 | 92 | 93 | 94 | 3602 | 3602 | 3602 | 62,2 | 64,4 | 62,4 |
| 14 | Urgut | 56353 | 56353 | 56353 | 144 | 141 | 144 | 7840 | 7840 | 7840 | 80 | 83,1 | 78,4 |
| 15 | Samarqand shahri | 38896 | 38896 | 38896 | - | - | - | 1899 | 1899 | 1899 | 81,4 | 96,8 | 85,6 |
| 16 | Kattaqurg'on shahri | 12707 | 12707 | 12707 | - | - | - | 520 | 520 | 520 | 72,3 | 69,6 | 100,0 |
| 17 | Viloyat bo'yicha | 512327 | 512527 | 512277 | 616 | 609 | 591 | 86059 | 86094 | 86089 | 65,7 | 65,6 | 63,1 |

**Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti asosida tuzilgan*

8-jadval

Samarqand viloyatida dehqon xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik tarmoqlarida yerlarning taqsimlanishi (ming ga)

2017 yil 1 yanvar holati.

| | Ekinlar turi | Yillar | | | | | | | 2010 yil 2016 yilga nisbatan % hisobida |
|---|--------------------------------------|--------|------|------|------|------|------|------|--|
| | | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | |
| 1 | Donli ekinlar | 23,8 | 23,2 | 24,1 | 24,2 | 25,6 | 27,5 | 26,1 | 110 |
| 2 | Texnika ekinlar | 0,8 | 4,0 | 3,0 | 2,8 | 2,9 | 2,4 | 2,3 | 288 |
| 3 | Kartoshka va sabzavot-poliz ekinlari | 21,3 | 22,0 | 20,9 | 20,2 | 20,2 | 23,4 | 23,1 | 108 |
| 4 | Ulardan. Kartoshka | 8,7 | 8,6 | 8,1 | 8,2 | 9,7 | 9,9 | 9,8 | 113 |
| 5 | Sabzavot | 11,2 | 12,0 | 22,7 | 10,7 | 12,3 | 12,3 | 12,2 | 109 |
| 6 | Poliz ekinlari | 1,3 | 1,3 | 1,5 | 1,3 | 1,1 | 1,2 | 1,1 | 85 |
| 7 | Oziqa ekinlari | 8,0 | 8,7 | 11,2 | 11,8 | 7,8 | 4,8 | 6,2 | 78 |
| 8 | Viloyat bo‘yicha | 53,9 | 58,9 | 59,2 | 59,1 | 58,3 | 58,1 | 57,7 | 107 |

**Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma’lumoti asosida tuzilgan*

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki viloyatda dehqon xo‘jaliklarida qishloq ekinlar maydoni yillar davomida oshib borgan. 2016 yilda jami dehqon xo‘jaliklari yer maydoni 57,7 ming gektarni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2010 yilda 53,9 ming gektar bo‘lgan. 2016 yilga kelib ular yer maydoni 2010 yilga nisbatan 107 foizga yoki 3,8 ming gektarga kamaygan. Shu bilan birga 2010 yildan to 2015 yilgacha bo‘lgan davrda ekinlar maydoni oshib borgan. Masalan, donli ekinlar 116, kartoshka, sabzavot poliz ekinlari 101 foizlarga oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Viloyatda mavjud yerlardan foydalanishda fermer xo‘jaliklarining ham ahamiyati kattadir. Samarqand viloyatda 2016 yilda

yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan fermer xo'jaliklarining ulishi 39,9 % ni tashkil qilmoqda. Ularda band bo'lgan ishchilar soni 79,04 ming kishini tashkil qilmoqda. Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti bo'yicha 2017 yil 1 yanvar holatida viloyatda jami 19947 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularga ajratilgan yer maydonlari 550824 gektarni tashkil qilmoqda. O'rta hisobda har bir fermer xo'jaliga 27,6 ga yer maydoni to'g'ri kelmoqda. Fermer xo'jaliklaridagi mavjud yer maydonlarining 55 %i yoki 300,4 ming gektari ekin ekiladigan yerlarni tashkil qiladi. Fermer xo'jaliklaridagi mavjud ekin ekiladigan 300,4 ming ga yer maydonlarining 51,9 % yoki 155,9 ming ga g'alla, 1,3 % yoki 3,2 ming ga kartoshka, 5,6 % yoki 17,6 ming ga cabzavotlar, 6,2 % yoki 18,7 ming ga meva va qolgan 35 % yoki 105 ming gekteriga paxta ekinlari etishtirilmoqda. Viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda fermer xo'jaliklarining hissasi kattadir. 2016 yilda fermer xo'jaliklari tamonidan 696,7 ming tonna g'alla, shundan 651,9 ming tonna bo'g'doy, har gektar yerdan 44,6 tsentenerni tashkil qilgan. Bu kursatkich dehqon xo'jaliklarida 66,4 ts/gani tashkil qilgan. Kartoshka 185,2 ming tonna yoki gektaridan 578,8 ts, Sabzavotlar 1020,6 ming tonna yoki gektaridan 579,9 st, meva 204 ming tonna yoki gekraridan 109,6 stentenerni tashkil qilgan. 2015 yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatda jami fermer xo'jaliklari soni 17756 tani tashkil qiladi. Ularga birlashtirilgan ekin maydoni 503392 gektarni, har bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yer maydoni esa 53,4 gektarga teng. Fermer xo'jaliklari soni bo'yicha yetakchi tumanlar jumlasiga Bulung'ur (2674), Urgut (2093), Ishtihon (2075), Pastdorg'om (1843), Jomboy (1835), Payariq (1731) tumanlari bu borada yuqori pog'onalarni egallaydi. Mavjud fermer xo'jaliklarida o'rganilayotgan davrda ishlovchilar soni 79041 tani tashkil qilmoqda. Bugungi kunga kelib fermer xo'jaliklari viloyat qishloq xo'jaligining yirik tovar ishlab chiqaruvchilariga aylandi. Ularga sug'oriladigan yer maydonlarining katta qismi birlashtirilgan yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ularning umumiy tobora ortib bormoqda. Hozirda fermer xo'jaliklari viloyatda etishtirilayotgan g'allaning 80 % i, paxtaning esa 99,1 foizi to'g'ri keladi.

Viloyatda fermer xo'jaliklarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

| Tumanlar nomi | | 2009 yil 1-yanvar holatiga | | | 2011 yil 1-yanvar holatiga | | | 2014 yil 1-yanvar holatiga | | |
|---------------|--------------|----------------------------|--------------------|--|----------------------------|--------------------|--|----------------------------|--------------------|--|
| | | Soni birlik | Yer maydoni gektar | 1 ta fermerning o'rtacha yer maydoniga | Soni birlik | Yer maydoni gektar | 1 ta fermerning o'rtacha yer maydoniga | Soni birlik | Yer maydoni gektar | 1 ta fermerning o'rtacha yer maydoniga |
| 1 | Oqdaryo | 1079 | 22111 | 20,4 | 1101 | 22111 | 20,1 | 563 | 24144,0 | 42,9 |
| 2 | Bulung'ur | 2841 | 37818 | 13,3 | 2888 | 37818 | 13,2 | 1129 | 37818,0 | 33,5 |
| 3 | Jomboy | 1153 | 31026 | 26,9 | 1166 | 31026 | 26,7 | 595 | 31874,0 | 53,6 |
| 4 | Ishtihon | 1979 | 38191 | 19,2 | 2061 | 38191 | 18,5 | 597 | 41296,0 | 69,2 |
| 5 | Kattaqurg'on | 1278 | 45830 | 35,8 | 1313 | 45830 | 34,9 | 506 | 61364,0 | 121,3 |
| 6 | Qushrobod | 811 | 17166 | 21,1 | 815 | 17166 | 21,1 | 267 | 18094,0 | 67,8 |
| 7 | Payariq | 1596 | 55713 | 34,9 | 1641 | 55713 | 34,0 | 667 | 59402,0 | 89,1 |
| 8 | Pastdarg'om | 3208 | 54960 | 17,1 | 3344 | 54960 | 16,4 | 893 | 56682,0 | 63,5 |
| 9 | Paxtachi | 1392 | 23700 | 17 | 1581 | 23700 | 15,2 | 357 | 24810,0 | 69,5 |
| 10 | Samarqand | 1040 | 15840 | 15,2 | 1080 | 15840 | 14,8 | 483 | 17572,0 | 36,4 |

| | | | | | | | | | | |
|----|------------------|-------|--------|------|-------|-------|------|------|----------|-------|
| 11 | Narpay | 1162 | 29698 | 25,5 | 1169 | 29698 | 25,5 | 378 | 29983,0 | 79,3 |
| 12 | Nurobod | 715 | 70109 | 98 | 861 | 70109 | 81,4 | 416 | 79611,0 | 191,4 |
| 13 | Tayloq | 2495 | 12692 | 5 | 2585 | 12692 | 5 | 708 | 12878,0 | 18,2 |
| 14 | Urgut | 3341 | 30770 | 9,2 | 3355 | 30770 | 9,2 | 829 | 31596,0 | 38,1 |
| 15 | Viloyat bo'yicha | 24090 | 495072 | 20,5 | 25010 | 49572 | 19,8 | 8388 | 527124,0 | 62,8 |

**Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumoti asosida tuzilgan*

Yuqoridagi jadvalga tahlili shuni ko'rsatadiki Viloyat bo'yicha fermer xo'jaliklari umumiy yer maydoni 2009-2011 yillarda o'zgarmagan, lekin 2014 yilga kelib fermer xo'jaliklari yer maydoni 3033 gektarga ko'paygan. O'rtacha har bir fermerga to'g'ri keladigan yer maydoni 2009 yilda 20,5 gektarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014 yilda 62,8 gektarni yoki 42,3 gektarga ko'paygan. Eng katta yer maydoni Nurobod tumaniga 1-fermerga 191,4 gektarni Kattaqo'rg'on 121,3 va Payariq tumanida 89,1 gektarni tashkil qilgan. Bu tumanlarda qishloq xo'jaligida ham dehqonchilik va chorvachilik qilish uchun imkoniyatlar borligi, yer maydonini boshqa tumanlardan kattaligi ham ahamiyatlidir. Sabzavotchilik, bog'dorchili, uzumchilikka ixtisoslashgan Tayloqda 18,2, Urgut tumanida 38,1 gektarni tashkil qilgan. 2014 yilda viloyatda fermer xo'jaliklar soni 2011 yilga nisbatan 16622 ga kamayganligi bois ularga ajratilgan yer maydonlari kupayishiga olib keldi. O'rtacha har bir fermerga viloyat bo'yicha 62,8 gektarni tashkil qildi. Nurobod tumanida o'rganilayotgan davrda fermer xo'jaliklari soni 416 taga, Paxtachida 357 taga, Payariq tumanida 667 taga eng ko'p fermer xo'jaliklari tashkil bo'lishi hisobiga ulardagi o'rta yer maydoni Nurobodda 81,4 gektardan 191,4 gektarga, Paxtachida 15,2 dan 69,5, Pastdarg'omda 16,4 dan 63,5, Ishtixonda esa 18,5 dan 69,2 gektarga yer maydonlari oshgan.

Albatta yer maydonlarining qisqarishi fermer xo'jaliklarini ko'payishi yerga bo'lgan e'tiborni pasayishga, undan oqilona va to'g'ri foydalanishda kamchiliklar ko'payishiga olib kelishi shubhasizdek, eskilar naqli bilan aytganda "podachi ko'p bo'lsa, qo'y xorom o'ladi" deganlaridek, yerning egalari ko'payib ketsa, uni bilgan ham bilmagan ham o'z holiga foydalanadi. Oqibatda unumdor, serhosil yer maydonlari kamayib, yerning sifat darajasi bo'ziladi. Shuning uchun yerga javobgarlik hissini oshirish, uni biladigan e'zozlaydiganlar qo'lga topshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ham aylangan. Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikamiz Prezidentining 2008 yil 6 sentyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo'yicha ishlab

chiqishda mahsus komissiyani tashkil qilish tug‘risida”gi PF-3077 sonli farmoyishi alohida ahamiyatga ega.

10-jadval

Samarqand viloyati fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik tarmoqlarida yerning taqsimlanishi (ming gektar)

2017 yil 1 yanvar holatida

| Ekin maydoni | Yillar | | | | | | | 2016 yildan 2004 yilga nisbatan % hisobida |
|------------------------------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|--|
| | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2014 | 2015 | 2016 | |
| Ekin maydoni | 128,3 | 166,1 | 230,8 | 243,3 | 302,9 | 303,3 | 300,4 | 234 |
| Shu jo‘mladan. Donli ekinlar | 69,1 | 87,5 | 122 | 129,1 | 161,6 | 161,5 | 155,9 | 256 |
| Texnik ekinlar | 54,2 | 71,5 | 94,8 | 94,2 | 110,3 | 109,7 | 109 | 202 |
| Shundan paxta | 49,4 | 66,9 | 92,8 | 89,4 | 94,5 | 94,5 | 105 | 213 |
| Kartoshka | 0,3 | 0,6 | 0,9 | 0,3 | 1,8 | 1,8 | 3,2 | 1066 |
| Sabzavot | 4,3 | 5,7 | 11,8 | 4,3 | 14,5 | 14,5 | 16,8 | 391 |
| Poliz ekinlari | 0,4 | 0,8 | 1,3 | 0,4 | 1,02 | 1,0 | 1,0 | 250 |
| Oziq ekinlari | 10 | 14,6 | 10,4 | 10 | 13,5 | 14,5 | 14,5 | 145 |
| Viloyat bo‘yicha | 128,3 | 166,1 | 230,8 | 243,3 | 302,9 | 303,3 | 300,4 | 234 |

**Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma’lumoti asosida tuzilgan*

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki viloyat fermer xo‘jaliklarining yer maydoni yil sayin oshib borgan. Viloyat bo‘yicha 2016 yilda 2004 yilga nisbatan yer maydoni 234 foizga yoki 172,1 ming gektarga kupayganligi, aynan qishloq xo‘jalik korxonalarini

tugatilishi va fermer xo'jaliklar soni hamda yer maydoni ko'payishi sabab bo'lgan. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldi.

Viloyat tumanlarida dehqon va fermer xo'jaliklarida yer resurslarining hajmi, sifat holati, ulardan foydalanish darajasi, qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvidauning taqsimlanishi turlichadir. Shunday ekan avvalo viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligi ixtiyorida bo'lgan yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, yerlar unumdorligini, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, tuproq meliartiv holatini nazorat qilish, manitoring o'tkazish undan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Bu esa yerdan mul-kul hosil yetishtirishga, aholi daromadi va yashash sharoitlarini yaxshilanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan kuzlangan asosiy vazifa fermer xo'jaliklari yer maydonlarida maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashga erishish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarining moliyaviy va texnik salohiyatini yuksaltirish, zarar kurib ishlayotgan o'zini oqlay olmayotgan mayda fermer xo'jaliklarining faoliyatiga barham berishdan iborat.

Samarqand viloyatida 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 19947 ta, 2011 yilga nisbatan 4143 taga fermer xo'jaliklari soni kamaygan ya'ni bu ko'rsatkich 21 foizga teng. Aksincha o'rtacha ajratilgan yer maydoni o'zgargan. 2011 yilda har bir fermerning o'rtacha yer maydoni 20,5 gektarni tashkil qilgan bo'lsa bu kursatkich 2016 yilda 27,6 gektarni tashkil qildi yoki fermer xo'jaliklarining ekin yer salohiyati 7,1 gektarga ortdi. Bu o'z navbatida ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Fermer xo'jaliklari sonining kamayishi, yer maydonlarini oshirilish yerdan samarali va unumli foydalanishga, undan mo'l hosil yetishtirishga suvdan oqilona foydalanish, agretixnika qoidalariga rioya qilish, yerga bo'lgan e'tiborni kupaytirishga yer egalari javobgarligini oshirishga xizmat qilish shubhasizdir.

Bundan kuzlangan asosiy vazifa fermer xo'jaliklari yer maydonlarida maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashga erishish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarining moliyaviy va texnik salohiyatini yuksaltirish, zarar kurib

ishlayotgan o'zini oqlay olmayotgan mayda fermer xo'jaliklarining faoliyatiga barham berishdan iborat.

Bularning natijasida Samarqand viloyatida 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 19947 ta, 2011 yilga nisbatan 4143 taga fermer xo'jaliklari soni kamaygan ya'ni bu ko'rsatkich 21 foizga teng. Aksincha o'rtacha ajratilgan yer maydoni o'zgargan. 2011 yilda har bir fermerning o'rtacha yer maydoni 20,5 gektarni tashkil qilgan bo'lsa bu kursatkich 2016 yilda 27,6 gektarni tashkil qildi yoki fermer xo'jaliklarining ekin yer salohiyati 7,1 gektarga ortdi. Bu o'z navbatida ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Fermer xo'jaliklari sonining kamayishi, yer maydonlarini oshirilish yerdan samarali va unumli foydalanishga, undan mo'l hosil yetishtirishga suvdan oqilona foydalanish, agretixnika qoidalariga rioya qilish, yerga bo'lgan e'tiborni kupaytirishga yer egalari javobgarligini oshirishga xizmat qilish shubhasizdir.

III BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING MUAMMOLARI

3.1. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari

Mamlakatimizda yer munosabatlari hozirgi va kelgusi avlod manfaatlarini ta'minlash maqsadida ilmiy asoslangan holda, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini qayta tiklash, oshirish va yaxshilash, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini taraqqiy ettirish, xo'jalik yuritishning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, uning teng huquqligi uchun sharoit yaratish, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarini himoyalash shuningdek, doirada qonunchilikni mustahkamlash yer qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Yer to'g'risidagi eng muhim xujjat albatta "Yer kodeksi" bo'lib, unda boshdan to oxirigacha yerga nihoyatda tejamkorlik, xo'jalik munosabatida yondoshuvi, barcha sohalarda yerni imkon qadar muhofazalash va oqilona foydalanish to'g'risida batafsil yoritilganidir. Har bir hududda, jumladan Samarqand viloyatida ham eng avvalo yerdan foydalanish uning xususiyatlarini chuqur o'rganishga, sug'orib dehqonchilik qilishlariga xo'jaliklarda ayniqsa uning xususiyatlarini chuqur o'rganish, ilmiy asosdagi tadbirlar majmuini ishlab chiqish, unga izchillik bilan yondashish va amalda to'plangan tajribaga rioya qilingan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu maqsadga erishishda yerni muhofaza qilish almashlab ekishni joriy qilish, ekin turlarini joylashtirishda yer kadastri ma'lumotlariga tayangan holda olib borilsa maqsadli bo'ladi. Chunki yer kadastri yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi barcha xo'jaliklarni ro'yxatdan o'tkazish, yerning sifatini aniqlash, tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash ishlarini o'z ichiga oladi. Asosiy boyligimiz bo'lgan sug'oriladigan yerlarimiz kam bo'lishiga qaramasdan uning maydoni kengayishiga emas balkim qisqarishda davom etmoqda, chunki aholi sonini oshishi sug'oriladigan yer maydonlariga bo'lgan talabni oshiradi.

Viloyatda fermer xo'jaliklariga bo'lgan e'tibor oshib borayotir. Aynan fermer xo'jaliklarida bugunki kunda qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi yetishtirilayotgani, shu xo'jalik sub'ektlariga e'tibor berishni taqazo etadi. Viloyatda mavjud yer resurslaridan foydalanishda fermer xo'jaliklari katta o'ringa ega. Fermer xo'jaliklarini yiriklashtirishdan maqsad ham avvalo ularda mavjud yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanib, sug'orish ishlariga e'tibor qaratish, sho'rlanishning oldini olish, yerni eroziyaga uchrashiga yo'l qo'yimaslik, ularni agrotexnika qoidalarini o'z vaqtida olib borish hamda hosil yetishtirishga erishishdan iboratdir. Shu bilan birga fermer xo'jaliklari yer maydonlaridan maqsadli foydalanishni ta'minlashga erishish avvalo yerni e'zozlaydigan uni har tomonlama tushunadigan bilimdon ishbiarmon, tashabbuskor fermerlar qo'lga topshirish unga bo'lgan e'tiborni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Viloyat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda maydonlarni tashkil qilishda ikkinchi vazifa barcha erlarga egalik qiluvchilar hech bo'lmaganda iqtisodiyoti imkoniyat yaratishi natijasida qilingan harakatni ko'taradigan darajada xo'jalik yuritishdan iborat. Bunga erishish uchun birinchi navbatda er ma'lumotlariga asoslangan holda ekin maydonlarini to'g'ri joylashtirish va ekinlarni hosildorligini er sharoitiga qarab to'g'ri belgilashdan iborat bo'ladi. Bu talablarga rioya qilgan holda viloyatga yer mutaxassislarini jalb qilish va ular tomonidan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning unumdorligi, holati, uning qishloq xo'jaligida yaroqliligi, sifatini aniqlashtirish, yerlarni klaslarga bo'lib, ball bonititlarini har bir fermer, dehqon xo'jaliklari bo'yicha aniqlab chiqishni taqazo etadi. Viloyatning ko'p joylarda ayniqsa qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda, o'g'it borasida, sug'orishda almashlab ekishda yerga rioya qilmaslik natijasida sho'rlanish, meliorativ holati yomonlashib ketishiga, uning maydoni oshishiga, hosildorlikni pasayib ketishiga yo'l qo'yilmoqda. Shu bilan birga chuqur o'rganib chiqilmasdan qishloq xo'jaligida foydalanib turilgan qimmatbaho sug'oriladigan yerlarni turli qurilishlarga ajratib borish hollari ham uchrab turibdi. Albatta viloyatda yer resurslaridan foydalanishda ayrim muammolar mavjudligi,

ularni bartaraf etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Shuning uchun tumanda yelarni istiqbolda muhofaza qilish, almashlab ekishga jiddiy rioya qilish, ekin turlarini yerning holatiga qarab shakllantirish mineral o'g'itlardan hamda suvdan to'g'ri foydalanish, o'z vaqtida sho'rini yuvish ishlarini amalga oshirish, turli tashkilotlarga qurilish uchun yer ajratishda barcha loyihalarga, yer kadastriga rioya qilgan holda olib borish, kelajakda yerdan samarali foydalanishga erishish mumkin bo'ladi.

3.2. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari

Samarqand viloyatida yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish uchun yer resurslarini kadastr va bonitirovkasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kadastr (franso'zcha-reestr, ro'yxat) - ob'ekt yoki hodisa to'g'risida jamlama sifatida va miqdoriy ma'lumotlarning tizimli majmuasi hisoblanadi, ko'p hollarda ular iqtisodiy baholashni nazarda tutadi. Kadastrning turlari ko'p. Yer kadastr quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish; b) yerni miqdoriy hisobi; v) yerning sifati; g) tuproq bonitirovkasi; d) yerlarni iqtisodiy baholash.

Tuproq bonitirovkasi - tuproqning unumdorligi bo'yicha nisbiy baholashdan iborat. Qiyosiy baholash tuproqlarni mavjud ob'ektiv xususiyatlari va belgilari asosida amalga oshirish, bular qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishida eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bonitirovkada miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) qo'llaniladi. Ular bir tuproqni ikkinchi tuproqdan qanchalik yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunda tuproqning eng muhim xususiyatlari va hosildorligi e'tiborga olinadi. Boshqacha aytganda, tuproq bonitirovkasi-bu, tuproqning hosildorligini ball hisobida agronomik inventarizatsiya qilish bo'lib, ball tuproqning asosiy xususiyatlari va eng muhim qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha hosildorligi hamda tabiiy yaylov (pichanzor) larning mahsuldorligi hisoblangan ko'rsatkichidir. Tuproq bonitirovkasi yer

kadastrining asosiy qismlaridan biri bo'lib, yer fondini miqdor va sifat jihatdan hisobga olish hisoblanadi. Miqdoriy hisobga olishning mohiyati yerdan foydalanish va ekinlarning turi bo'yicha maydoni hisobida taqsimlanishni ko'rsatadi. Haydaladigan, sug'oriladigan yerlar, bog'lar, pichanzor, yaylovlar va boshqalarning maydoni hisobga olinadi. Sifat jihatidan inventarizatsiya qilishda tuproqning asosiy xususiyatlari, ayniqsa, unumdorligi hamda mehnat mahsuli-ekinlarning hosildorligi (ko'rsatkichi) hisobga olinadi. Bunda har bir yer uchastkasining haqiqiy va potentsial (imkoniy) mahsuldorligi, shunindek, butun jamoa xo'jaligi, tuman va viloyat bo'yicha ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bunday tartibda yer uchastkalarini hisobga olish qishloq xo'jalik yerlarini (ekinzorlarini), haydaladigan yerlar, pichanzor, yaylov, o'rmon va boshqalarning mahsuldorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda zarur bo'ladi. U xo'jaliklarning to'g'ri ixtisoslashuvi va tarmoqlarning oqilona almashib kelishi, yerlarni melioratsiya qilishda kapital mablag' sarflashni rejalashtirishda asos bo'ladi. SHu bilan birga tuproq bonitirovkasi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum hududlarni (jamoat xo'jaligi, tuman, viloyat) tuproqlarining unumdorligi bo'yicha guruhlariga birlashtirish va solishtirish uchun imkon beradi, fermer xo'jaliklari va ishlab chiqarish faoliyatiga hududning iqlimiy va iqtisodiy sharoitlarini e'tiborga olib ob'ektiv baho berish, tuproqlardan oqilona foydalanish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, bu boradagi imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Bonitirovkada paxta, don, sholi,em-xashak, qand lavlagi yetishtirish, tabiiy o't va o'rmonlar, bog'lar tashkil qilish uchun eng qulay sharoitlarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. U qishloq xo'jalik mutaxassislariga sug'orma, lalmi yerlardan, yaylovlardan jadal foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Bonitirovka asosida tuproq sifatiga mos keladigan hosildorlikni oldindan belgilash, tuproqqa solinadigan mineral va organik o'g'itlar miqdorini aniqlash mumkin. Bonitirovka tuproqning qanday chora-tadbirlarga muhtojligi, eroziya va deflyatsiya, qurutish melioratsiyasi, fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish zarurligini hudud bo'yicha hamda ayrim areallarda muntazam keng miqyosda qo'llashni asoslaydi. Bonitirovka usullari va

bonitirovka shkalasi baholash mezonlari bo'yicha farqlanadi. Bunda tuproqning ayrim tabiiy xususiyatlari yoki ushbu xususiyatlaridan jami baholashda foydalaniladi. Lekin baholash jarayonida tuproqning qishloq xo'jalik ekinlari rivojlanadigan sharoitlarini belgilovchi xususiyatlari va belgilari asos qilib olinadi. SHuning uchun ham ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan tuproq bir turdagi ekin uchun qulay, boshqa turdagi ekinlar uchun esa noqulay bo'lishi mumkin. Tuproqlarni xususiyatlari bo'yicha baholash mantiqan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini nazorat qiladi. Tuproqlarni baholashda ularga jiddiy ta'sir etuvchi omillar, ya'ni rel'ef, grunt suvlari sathi va mineralashuv darajasi, iqlim xususiyatlari, gruntning suv o'tkazuvchanligi, yotqiziqslarning litologik tarkibi, yerning o'lchamlari va boshqalarga katta ahamiyat beriladi.

11- jadval

Yer va undan foydalanish darajasi o'zgarishining yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

| t/r | Ko'rsatkichlar | Bazis yili | Hisobot yilidagi maydon va bazis yilidagi yer mahsuldorligi bo'yicha | Hisobot yili | O'zgarishi (Q,-) | Shu jumladan omillar ta'siri | |
|-----|--|------------|--|--------------|------------------|------------------------------|----------------------------|
| | | | | | | yer maydoni hisobiga | yer mahsuldorligi hisobiga |
| 1 | Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, ga | 288,5 | 312 | 312 | Q23,5 | X | X |
| 2 | yer mahsuldorligi, ming so'm | 402,1 | 402,1 | 427,1 | Q25 | X | X |
| 3 | Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, ming so'm | 116018 | 125455 | 133248 | Q17230 | Q9437 | Q7793 |

Manba, Samarqand viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Sug'oriladigan va lalmi yerlar mahsuldorligini yaxshilash choralari quyidagilardan iborat: Yerni kapital va joriy tekislash, sho'r yuvishni o'z vaqtida sifatli o'tkazish, mineral va organik o'g'itlardan oqilona foydalanish, paxtazorlar maydonini qisqartirish, tuproqlarni bonitlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish barcha resurslar bilan ta'minlanish va ayniqsa ulardan foydalanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shular orasida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi tariqasida muxim o'rinni egallaydi. Samarqand viloyatida paxtachilikni istiqbolda rivojlantirish butun ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish, tuproq iqlimiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda navlar bo'yicha rayonlashtirish bilan bog'liq. Ayni paytda istiqbolli ertapishar, serhosil, yuqori texnologik xususiyatlarga ega g'o'za navlarini yaratishda genetika va seleksiya hamda biotexnologiya va gen injeneriyasining so'nggi yutuqlarini doimiy sur'atda tadbiq qilish ham juda muhim ahamiyatga egadir. Suv va yer resurslaridan samarali foydalanish qishloq va suv xo'jaligi tizimida asosiy o'rin tutadi. Mintaqada qishloq xo'jaligi ekinlarini yer va suv resurslarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda joylashtirish maqsadga muvofiq. Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan suvdan foydalanuvchilarning manfaatlarini oshirishga qaratilgan amaliy tadbirlar bilan bog'liqdir. SHuningdek, suvdan foydalanish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, melioratsiya va irrigatsiya tadbirlarini har bir hudud iqtisodiy-geografik xususiyatlari (tuproq turlarining tarqalishi, suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, melioratsiya va irrigatsiya tizimlari, yer osti suvlarining ko'tarilish darajasi, sho'rlanish, suv va deflyatsiya (shamol) eroziyasining rivojlanganligi va boshqa omillar) ni hisobga olish muhim iqtisodiy-ekologik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yer resurslaridan samarali foydalanish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha davrlari uchun g'oyat dolzarb ahamiyatdagi masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu munosabatni har tomonlama chuqur va ilmiy jihatdan tadqiq etish masalasini shu kunning ob'ektiv zaruriyati sifatida baholash mumkin. Yer mohiyatan inson xo'jalik faoliyatining boshlang'ich manbaasi hisoblanadi hamda qolgan barcha resurslar va munosabatlarning o'zaro aloqadorligi ham aynan shu resursga asoslanadi. Inson xo'jalik faoliyati qirralari va ko'lamining tobora kengayib borayotganligi, demografik vaziyatning (nafaqat aholi sonining o'sishi, balki, uning boshqa tarkibiy sifat ko'rsatkichlari misolida) chuqurlashuvi, resurslar safarbarlik darajasi oshib borishi bilan tabiiy muhitning "zo'riqishi" yer resurslaridan foydalanishning nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki, geoeologik oqibatlarini ham o'rganishni kun tartibiga qo'yamoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, Samarqand viloyatida yer resurslari bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Chunki aholi soni qancha ko'payib borsa, yerga ehtiyoj shuncha oshib boraveradi, chunki inson uchun kerak bo'ladigan barcha narsalar aynan yerda bunyod etiladi. Shunday ekan viloyat va tumanlarda yer resurslarining holatini o'rganib borish maqsadga muvoffiqdir. Viloyat yer fondida so'g'oriladigan yerlar holati muhim hisoblanib, keyingi yillarda uning maydoni qisqarib bormoqda. Viloyat tumanlari qishloq xo'jaligi tamoqlari rivojlab borayotgan tumanlardan biridir. Bu tumanning yer holati, uning xo'jaliklar doirasida taqsimlanishi, undan foydalanish imkoniyatlari o'rganilib chiqib qo'yidagi xulosani berish mumkin.

Viloyatda yer resurslaridan foydalanishda dehqonchilik va yaylov chorvachiligida intensiv usulning mavjudligi qulay tabiiy sharoitning mavjudligi, iqtisodiy geografik jihatdan Samarqand-Nurota yo'llari kesishgan nuqtada joylashganligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunki, qishloq xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlab transport orqali istalgan hududga o'tkazish

imkoniyati kattadir. Bu esa mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Keyingi yillarda viloyatda yer resurslaridan intensiv foydalanishda fermer xo'jaliklarining faoliyati asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yer haqiqiy egasini topdi, endilikda yerning ham sifat, ham meliorativ holatiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ayniqsa yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishda organik o'g'itlar miqdorini oshirish bilan, mahalliy o'g'itlar ya'ni chirindili moddalar, organik va ximiyaviy o'g'itlar berish, ishlovni o'z vaqtida olib borish talab etiladi. Bunda tuproq tarkibi yaxshilanib yuqori hosil olish imkonini berish bilan birga yer holatini yomon tomonga o'zgarishi oldini oladi. Mana shu kabi tadbirlarni o'tkazishda yer holati va boshqa qishloq xo'jaligi yerlarining vazifasi kattadir. Yer resurslaridan foydalanishda bir yillik hosil nazarda tutilmasdan, balkim ko'p yillar davomida foydalanishni inobatga olish lozimdir. Chunki yil sayin aholini o'sib borishi ularning qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan ta'minlash, uy-joy va ish bilan ta'minlashda yer resurslari qimmatli boylikka aylanib boradi. Chunonchi viloyatda ham yer resurslari qimmatbaho boyliklardan sanaladi. Shuning uchun mavsumdan tashqari vaqtlarda ariq va zavurlarni qazish, herna sho'rini olish, kerakli ozuqa berish maqsadga muvofiqdir.

Viloyat yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishda bu yerdagi mavjud xo'jalik sub'ektlarining ahamiyati kattadir. Viloyat qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishda asosiy ishlab chiqaruvchi sub'ektlar ya'ni fermer, dehqon xo'jaliklari hamda qisman urug'chilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar, oila qudrati kabilarning ahamiyati kattadir. Shunday ekan, ushbu xo'jaliklarning tuman her resurslaridan foydalanish jarayonlarini tahlil qilib chiqish lozimdir. Yuqoridagi tahlildan shuni ko'rish mumkinki, viloyatning barcha tumanlarida yer resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa so'g'oriladigan yerlardan unumli va samarali foydalanish, ular holatini yomonlashishdan asrash, almashlab ekishni jorish etish, yerlarni shurini qochirish uchun zovurlar qazish va shur yuvish ishlarini o'z vaqtida olib borish, ekinlarni so'g'orish jarayonida agetlarga qo'yiladigan suvlarning miyoriga e'tibor berish, ximiyaviy o'g'itlardan to'g'ri foydalanish; agrotexnika

qoidarariga qat'iy amal qilish, yerlarga mahalliy o'g'itlar erishni muntazam ravishda olib borish, shudgor qilish ishlarini vaqtida bajarish va boshqalarga e'tibor berilsa tumanda yerning holati saqlab qolinishiga erishiladi. Viloyat ayrim fodalanilmaydigan yerlar holatini ilmiy jihatdan chuqur o'rganib, undan samarali fodalanish yo'llarini ishlab chiqish kerak.

Viloyatida uzoq yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha asosan kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish, tiklash va ta'mirlash ishlari bajarilib kelindi. Ammo, qancha mln. m³ kollektor-drenaj tarmoqlari tozalanmasin, baribir o'rtacha, kuchli sho'rlangan yerlar hamon ko'payib bormoqda.

Yerlarning sho'rlanish jarayoni ko'p omillarga bog'liq, ammo ko'p mutaxassislarning fikricha, agar kollektor-zovur tarmoqlarini normativ bo'yicha tozalansa yerlarning sho'rlanish jarayoni sekinlashadi deb xisoblaydi. Lekin, sug'oriladigan yerlarni sho'rsizlantirishda kollektor-drenajlarning ishchi holati muhim rol o'ynaydi, ammo sug'oriladigan yerlarni sho'rsizlantirish uchun kompleks agorotexnik tadbirlar olib borilishi lozim: Bunda

- Meliorativ ekspeditsiyalar tavsiyalariga ko'ra sho'ri yuvilishi lozim deb topilgan maydonlarni fermer xo'jaliklari va dalalar (kontur) kesimida aniqlash;

- Sho'r yuvish rejalashtirilgan har bir maydon bo'yicha sho'r yuvish turini tanlash (kuchli sho'rlangan yerlarda-cheklar, o'rtacha va kam sho'rlangan yerlarda - polosalar yoki egatlar yordamida);

- Yerlarni haydash va yumshatish, tekislash va planirovka qilish, chizellash, mola bosish kabilar kiradi;

Sug'oriladigan yer maydonlarida kollektor-drenaj tizimlari bosimli yer osti suvlari, tuproq osti grunt suvlarining zaruriy qismini o'z vaqtida sug'orish maydonlaridan chiqarib tashlash va sizot suvlar sathini mo'ljallagan chuqurlikda saqlash bilan birga ekiladigan yerlarda tuproq suv va tuz muvozanatini meyyooriy darajada saqlab turish qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil yetish tirish uchun sharoit yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- yer resurslaridan foydalanish va tuproq holatini yaxshilashda samarali agrotexnik usullardan foydalanish;

- malakali tuproqshunos xodimlarning faoliyatini to'g'ri tashkil etish;

- viloyat va tuman xo'jaliklari bo'yicha holati yomon yerlarda meliorativ tadbirlarni kuchaytirish;

- nisbatan urbanizatsiyalashgan hududlarda chiqindilarning foydalaniladigan yerlarga salbiy ta'sirini kuchli nazorat qilish va h.k.o.

Yer resurslaridan foydalanishda ushbu vaziyatlarni hisobga olish qishloq xo'jaligining yanada rivojlanishida va iqtisodiyotning yuksalishida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qonunlar, qarorlar va farmonlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. O'zbekiston 2001. 3-bo'lim 12-bob. 55-modda. 11 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari-T.: Adolat. 1999. - B.448
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4478-sonli Farmoni; O'zbekistonning yangi qonunlari 2012 27-38 b
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash va suv resurslaridan ratsional foydalanish bo'yicha 2013-2017 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmoni O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami 2013. 23 aprel (101-103)
5. Yerdan foydalanish va uni muxofaza qilish ustidan Davlat nazorati to'g'risida Nizom. T., O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2005 yil. 2-son. -54 59-b.
6. Ш. М. Мирзиёевнинг 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ ПФ-4947 сонли қарори. 07.02.2017.

2. Kitob va turkum nashrlari

1. Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.Т. "Ўзбекистон".1997
2. Абдуллаев О. Иқтисодий ва ижтимоий географияга кириш. Наманган 1999.
3. Асанов Г.Р, Набихонов.М, Сафаров И. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий жуғрофияси.Т.1994
4. Вахидова С.Э. Развития и размещения сельскохозяйственного производство Узбекистана. Т. 1990

5. Рўзиев А. Қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши асослари. Т. 1990
- 6 Солиев А.С. Иқтисодий ва ижтимоий географиянинг долзарб масалалари. Т. 1995
7. Солиев А.С., Махмадалиев Р. Иқтисодий география асослари. Т. Ўзбекистон 1995
8. Солиев А.С ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Т. 2003
9. Эргашев А. Фермер хўжаликларида ер ресурслардан самарали фойдаланиш. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 2009. №7. 26 б.
10. Мирзажонов Қ., Ражабов Т. Тупроқ шўрининг ғўза ҳосилдорлигига таъсири. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 2011. №4. 31 б.
11. Султанов Б., Саъдуллаев У. Ерлардан самарали фойдаланиш. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 2010. №8. 25 б.
12. Қувондиқов О, Қаюмова М. Фермер хўжаликларида «ер кадастри» ва ерларни карталаштиришнинг аҳамияти. Геодезия, картография ва кадастр соҳаларини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд 2014.159-160 бет.
13. Қувондиқов О.Х., Усмонов М.Р. Самарқанд вилояти ер ресурсларидан фойдаланиш муаммолари. Суғориладиган бўз тупроқлар унумдорлигини ошириш ва унинг экологик муаммолари. Конференция материаллари. 1-қисм. Самарқанд. 2002.
14. Қувондиқов О.Х., Усмонов М.Р. Қишлоқ хўжалигида ер сув ресурсларидан фойдаланишнинг баъзи масалалари. Ҳозирги замон географияси: назария ва амалиёт. Халқаро илмий ва амалий конференция материаллари. Тошкент. 2006 .
15. Samarqand viloyat statistika bohqarmasi ma'lumotlari. 2011-2017.
16. <http://www.msvx.uz/rus/about.php> (O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi internet sayti).
17. <http://www.cawatEr-info.net/>